




MARKAZIY OSIYO ILMIY TADQIQOTLAR AKADEMIK JURNALI

CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL
OF SCIENTIFIC RESEARCH

АКАДЕМИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ НАУЧНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ISSN 2181-2489



2(26)

2026



FAN SOHALARI

07.00.00	Tarix fanlari
08.00.00	Iqtisodiyot fanlari
09.00.00	Falsafa fanlari
10.00.00	Filologiya fanlari
13.00.00	Pedagogika fanlari
19.00.00	Psixologiya fanlari





MARKAZIY OSIYO ILMIY TADQIQOTLAR AKADEMIK JURNALI

CENTRAL ASIAN ACADEMIC JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCH

АКАДЕМИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ НАУЧНЫХ
ИССЛЕДОВАНИЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

ISSN: 2181-2489

30-avgust, 2026-yil
2(26)-son



TAHRIR HAY'ATI

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Oybek Anvarovich	Tarix fanlari nomzodi, professor <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>
Kenjayeva Nargiza Soatmuminovna	Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Bozorov Abdurashid Toyir o'g'li	Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) <i>Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi</i>
Kosimova Zarina Alijon qizi	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) <i>Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi</i>

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

G'afforova Gulchexra G'ulomjonovna	Falsafa fanlari doktori (DSc), professor <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>
Axatov Lutfillo Karomatulloyevich	Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Davlatova Adiba Raxmatovna	Filologiya fanlari doktori (DSc), professor <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>
Murodova Firuza Jalolovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>
Shayxislamov Nursulton Zamon o'g'li	Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

Hayitov Oybek Eshboyevich	Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor <i>Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi</i>
Abdusamatova Shaxlo Saidmurotovna	Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) <i>Chirchiq davlat pedagogika universiteti</i>

Izoh: jurnalda nashr etilgan maqolalarda berilgan ma'lumotlarning haqqoniyligi, ishonchliligi hamda to'g'riligi uchun mualliflar shaxsan javobgar sanaladi.

ISSN: 2181-2489



**O‘ZBEK NUTQI VA MILLIY MULOQOT
MADANIYATIDA PARALINGVISTIK
VOSITALARNING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI**

**LINGUOCULTURAL FEATURES OF
PARALINGUISTIC MEANS IN UZBEK SPEECH
AND NATIONAL COMMUNICATION CULTURE**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ
ПАРАЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В
УЗБЕКСКОЙ РЕЧИ И НАЦИОНАЛЬНОЙ
КУЛЬТУРЕ ОБЩЕНИЯ**

FAN TARMOG‘I
10.00.00 – Filologiya

QABUL QILINDI
13.08.2026

CHOP ETILDI
16.08.2026

Firuz Jalolovna Murodova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘zbek nutqiy muloqotida qo‘llaniladigan paralingvistik vositalar – imo-ishora, mimika, ovoz ohangi, pauza, nigoh va boshqa noverbal vositalarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Til va nutqning nafaqat verbal, balki noverbal komponentlari ham milliy-madaniy o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi muhim vosita ekanligi asoslanadi. Maqolada paralingvistik vositalarning o‘zbek xalqi mentaliteti, urf-odatlar, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi, ularning muloqot jarayonida bajaradigan funksiyalari (ma’noni kuchaytirish, his-tuyg‘uni ifodalash, nutqiy vaziyatni to‘ldirish va h.k.) ochib beriladi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek so‘zlashuv nutqi va badiiy matnlardan olingan misollar lingvokulturologik va pragmalingsvistik tahlil usullari orqali o‘rganildi. Maqola natijalari o‘zbek tilshunosligi, lingvokulturologiya sohalarida amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: paralingvistika, noverbal muloqot, lingvomadaniyatshunoslik, milliy muloqot madaniyati, imo-ishora, mimika, nutq odobi.

ABSTRACT

This article analyzes the linguacultural characteristics of paralinguistic means – such as gestures, facial expressions, tone of voice, pauses, eye contact, and other non-verbal components – used in Uzbek speech communication. It substantiates that not only verbal but also non-verbal elements of language and speech serve as essential tools reflecting national and cultural identity. The article reveals the connection between paralinguistic means and the Uzbek mindset, customs, and socio-cultural values, as well as their functions in the communication process (enhancing meaning,

expressing emotions, complementing the speech situation, etc.). Throughout the study, examples drawn from Uzbek spoken discourse and literary texts were examined using linguacultural and pragmalinguistic analysis methods. The results of the article hold theoretical and practical significance in the fields of Uzbek linguistics and linguaculturology.

Keywords: paralinguistics, Uzbek speech, communication culture, linguacultural characteristics, non-verbal communication, Eastern etiquette, national-cultural code, pragmalinguistics.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются лингвокультурные особенности паралингвистических средств, используемых в узбекском речевом общении, — жестов, мимики, интонации, пауз, взгляда и других невербальных средств. Обосновывается положение о том, что не только вербальные, но и невербальные компоненты языка и речи являются важными средствами отражения национально-культурной специфики. В статье раскрывается связь паралингвистических средств с менталитетом узбекского народа, его обычаями, традициями и социально-культурными ценностями, а также выявляются их функции в процессе коммуникации (усиление значения, выражение эмоций, дополнение речевой ситуации и др.). В ходе исследования примеры из узбекской разговорной речи и художественных текстов изучались с использованием методов лингвокультурологического и прагмалингвистического анализа. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для узбекского языкознания и лингвокультурологии.

Ключевые слова: паралингвистика, невербальная коммуникация, лингвокультурология, национальная культура общения, жесты, мимика, речевой этикет.

KIRISH

Til va nutq inson muloqotining asosiy vositasi bo'lsa-da, muloqot jarayonida axborot faqat verbal vositalar orqaligina emas, balki paralingvistik – noverbal vositalar (imo-ishora, mimika, ovoz tembri va ohangi, pauza, nigoh, masofa va h.k.) orqali ham uzatiladi. Jahon tilshunosligida paralingvistika XX asr o'rtalarida mustaqil yo'nalish sifatida shakllangan va bugungi kunda u pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanib bormoqda, chunki har bir xalqning noverbal xatti-harakatlari o'sha millatning mentaliteti, urf-odati va qadriyatlar tizimini o'zida aks ettiradi. Paralingvistik vositalarning nazariy asoslari jahon tilshunosligida R.Birdvstell,

E.Xoll, A.Megrabyan hamda G.Kolshanskiy kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida bu sohaning shakllanishi va nazariy poydevori A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo'minov hamda Sh.Iskandarova kabi taniqli tilshunoslarning ilmiy izlanishlari bilan bevosita bog'liqdir. Akademik N.Mahmudovning lingvokulturolojik qarashlarida esa o'zbek milliy muloqotida uchraydigan ko'plab noverbal va paralingvistik signallar (muloqotda masofa saqlash, intonatsiyani pasaytirish, kamsuqumlik) shunchaki emotsional holat emas, balki milliy mentalitet va sharqona odob-axloqni namoyon etuvchi lingvomadaniy hodisa ekanligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga paralingvistik vositalarni ingliz, o'zbek va rus tillari misolida ijtimoiy-madaniy, kognitiv va etnik jihatdan qiyosiy-chog'ishtirma tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar yaratilgan bo'lib, bunda paralingvistik fanlararo maqomi hamda uning verbal vositalar bilan o'zaro nisbati alohida ilmiy asoslab berilgan bo'lda-da, zamonaviy o'zbek tilshunosligida ushbu vositalarni milliy muloqot madaniyati, lingvomadaniy kodlar hamda sharqona odob-axloq me'yorlari (kattalarga hurmat, ibo, hayo, lutf va muloqot iyerarxiyasi) bilan o'zaro aloqadorlikda kompleks o'rganish alohida ilmiy ehtiyoj hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolada o'zbek nutqida qo'llaniladigan paralingvistik vositalarning milliy mentalitet hamda ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi lingvomadaniy xususiyatlarini ilmiy-nazariy va amaliy tahlillar orqali ochib berish maqsad qilingan.

ASOSIY QISM

O'zbek milliy muloqot madaniyati xalqning ko'p asrlik ijtimoiy tajribasi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar, oilaviy munosabatlari va odob-axloq me'yorlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan. Unda so'zlovchining kimga, qanday ijtimoiy maqomdagi shaxsga va qanday vaziyatda murojaat qilishi, murojaat shaklini tanlashi, ovoz ohangi, nutq sur'ati, pauza, nigoh, mimika va imo-ishora kabi paralingvistik vositalar muhim kommunikativ vazifa bajaradi. Ayniqsa, o'zbek muloqotida kattaga hurmat, kichikka izzat, mehmondo'stlik, andisha, hayo, muloyimlik, kamtarlik kabi milliy-axloqiy qadriyatlar nutqiy va nolisoniy vositalarning tanlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan paralingvistik vositalarni faqat nutqqa hamroh bo'luvchi nolisoniy belgilar sifatida emas, balki muayyan xalqning milliy dunyoqarashi va kommunikativ xulq-atvorini aks ettiruvchi lingvomadaniy birliklar sifatida baholash mumkin.

O'zbek badiiy adabiyoti milliy muloqot madaniyatining ana shu xususiyatlarini kuzatish uchun muhim manbalardan biri hisoblanadi. Xususan, Said Ahmadning "Ufq" romanida qahramonlar o'rtasidagi muloqotlarda katta-kichik munosabati, oilaviy muomala, hurmat va andisha kabi milliy kommunikativ me'yorlar turli nutqiy va paralingvistik vositalar orqali namoyon bo'ladi. Asarda qahramonlarning bir-biriga munosabati faqat leksik yoki grammatik vositalar orqali emas, balki nutq ohangi, sukut, to'xtam, nigoh va harakatlar bilan ham ifodalanadi.

"Ikromjon og'ziga osh ham olmadi. Choyni ham qaytarib qo'ydi. Jannat xola erining yuziga qarashga botinmay, boshini quyi solib, pichirlab dedi:

– Dadasi... bir og'iz bir narsa deng...

Ikromjon bo'g'i, past ovozda, lekin har bir so'zini uzib-uzib gapirdi:

– Tursunboy... endi bizning o'g'limiz emas..."¹

Ushbu parchada Ikromjon va Jannat xola obrazlari muloqotida o'zbekona bosiqlik va fojining og'irligi fonatsion va kinesik vositalarda yoritiladi. Ikromjon o'g'li Tursunboyning xiyonatidan keyin el-yurt oldida boshi egilib, dardini ichiga yutadi. *"Boshini quyi solib, pichirlab dedi"* birikmasida boshini quyi solish Jannat xolaning andishasi, hurmati va ichki iztirobini, *pichirlash* esa vaziyatning ruhiy og'irligini ifodalovchi akustik vositani bildiradi. Ikromjon nutqidagi *"bo'g'i, past ovozda"* va *"so'zini uzib-uzib gapirdi"* tasvirlari esa uning kuchli ruhiy iztirobini, og'ir xulosani aytishga qiynalayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, *"Tursunboy... endi bizning o'g'limiz emas"* jumlasidagi ko'p nuqta pauzaning grafik ifodasi bo'lib, ichki kechinmaning kuchini oshiradi. Mazkur parcha o'zbek milliy muloqotida andisha, hurmat, hayo va hissiyotni tiyish kabi qadriyatlarning paralingvistik vositalar orqali namoyon bo'lishini yaqqol ko'rsatsa, yana bir boshqa o'rinda oriyat va andisha har narsadan ustun ekani ta'kidlanadi: *"Akbarali nima deyishini bilmay iyagini qashidi. Insofga kelay deb turgan odam birdan aynidi, qoldi. Etagini siltab ayvonga qarab ketdi. Ketarkan qattiq dedi: – Bu ish na nikoh bilan, na pul bilan bitadi. Oraga nomus tushdi. Endi bu dog'ni qon bilan yuvaman. Ketinglar. Meni hech qanaqa singlim yo'q. U o'lgan. Marhum ota-onam nomidan uni oq qildim!"²* Keltirilgan Ushbu parchada qahramonning ichki kechinmalari va hissiy holati paralingvistik vositalar yordamida ta'sirchan ifodalangan. *"Iyagini qashidi"* ikkilanish va ichki beqarorlikni, *"etagini siltab ketdi"* esa norozilik va qat'iy rad etishni ifodalasa, *"qattiq dedi"* birikmasi nutqning keskin va murosasiz ohangda ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, *"nomus"*, *"dog"*, *"qon bilan yuvish"* kabi birliklar o'zbek milliy mentalitetidagi or-nomus va sha'n kabi tushunchalar insonning hayotidan ham muhim ekanligini aks ettiradi. Umuman, bu vositalar qahramonning psixologik holati bilan birga milliy qadriyatlarning muloqotga ta'sirini ham ifodalaydi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimovning *"Dunyoning ishlari"* qissasida oddiy odamlarning kundalik turmush tashvishlari, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar tasvirlanadi. Asarda qahramonlarning his-tuyg'ulari ko'pincha ochiq so'z bilan emas, balki xo'rsinish, chuqur nafas olish, qo'l siltash, yuzni burish kabi paralingvistik harakatlar orqali beriladi. Bu esa o'zbek muloqot madaniyatiga xos "sirni ochiq aytmaslik", his-tuyg'uni jilovlash, o'zini bosishga intilish kabi milliy-psixologik xususiyatlarning badiiy in'ikosidir.

¹ Said Ahmad. *"Ufq" trilogiyasi*. – T.: "Sharq", 2015. – 184-b.

² Shu kitob. -30-b

"Mehmon kelganda Onam choponining barini beliga qistirib, qo'llarini ko'ksiga qo'ygan darvoza oldida poylab turardi. Eshitilar-eshitilmas muloyim ovozda:

– *Kelingizlar, xush kelibsizlar, – derdi-da, boshini sal egib, ichkariga taklif qilardi.*"³ Keltirilgan parcha o'zbek milliy muloqot madaniyatida paralingvistik vositalarning verbal nutqdan ustunroq ma'no tashuvchi bo'lishi mumkinligini yaqqol namoyon etadi: *choponning barini beliga qistirish* va *darvoza oldida poylab turish* – mehmonni kutishga bo'lgan ichki tayyorgarlik va e'zozni, *qo'llarni ko'ksiga qo'yish* va *boshni sal egish* – chuqur hurmat, itoat va kamtarlikni, *"eshitilar-eshitilmas muloyim ovoz"* esa ayollarga xos andisha, ibo va vazminlik me'yori ifodalovchi kinesik (imo-ishora, tana harakati), proksemik (joylashuv) va fonatsion (ovoz xususiyatlari) vositalar sifatida bir-birini to'ldirib, atigi ikki og'iz so'z ("Kelinsizlar, xush kelibsizlar") ancha teranroq va ko'p qatlamli milliy-madaniy mazmunni yetkazib beradi, bu esa o'zbek nutqiy muloqotida noverbal unsurlarning so'zga qo'shimcha emas, balki mustaqil ma'no shakllantiruvchi vosita ekanligini isbotlaydi.

Zamonaviy o'zbek nasrida ham bu an'ana davom etmoqda, milliy muloqotning o'zgarib borayotgan shakllari, shahar va qishloq muhitiga xos kommunikativ modellar, avlodlar o'rtasidagi munosabatlar hamda milliy qadriyatlarning yangi ijtimoiy sharoitda namoyon bo'lishi tasvirlanmoqda. Xususan, zamonaviy yozuvchilarning asarlarida qahramonlararo muloqot tasviri ko'pincha imo-ishora, jim qolish, kulgi yoki tabassurning turli xillari orqali psixologik jihatdan boyitilgan holda beriladi. Bu esa paralingvistik vositalarning o'zbek badiiy nutqida barqaror va an'anaviy tasvir vositasi sifatida saqlanib qolganini ko'rsatadi.

– *Otam mening gaplarimni eshitarkan, ko'zlarini olisga tikkancha uzoq jim qoldi. Keyin sekin xo'rsindi-da, boshini irg'ab qo'ydi:*

– *Mayli, o'zing bilasan, o'g'lim... – dedi og'ir intonatsiya bilan.*⁴

Isajon Sultonning "Bozor" romanidan olingan ushbu parchada qahramonning ichki kechinmasi paralingvistik vositalar orqali ochilgan. *"Ko'zlarini olisga tikkancha uzoq jim qoldi"* – o'ychanlik va ruhiy iztirobni, *"sekin xo'rsindi"* – ichki og'riqni, *"boshini irg'ab qo'ydi"* esa rozilik va murosani ifodalaydi. *"Mayli, o'zing bilasan, o'g'lim..."* jumlasidagi og'ir ohang tashqi rozilik ortidagi otalik iztirobini kuchaytiradi. Mazkur vositalar o'zbek oilaviy muloqotiga xos andisha, hissiyotni tiyish va mehrni bilvosita ifodalash xususiyatlarini namoyon etadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining iste'dodli vakili Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romanidan olingan ushbu parchani tahlil qilamiz: – *Sizga kim vakolat berdi? – so'radi u stolni barmoqlari bilan urib. Yigit qaddini tik tutdi. Uning ko'zlarida qo'rqinch emas, g'azab uchqunlari yonardi.* – *Menga vijdonim vakolat bergan, – dedi u sekin, lekin har bir so'zga urg'u berib.*

³ O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari". – T.: "Yangi asr avlodi", 2018. – 42-b.

⁴ Isajon Sulton. "Bozor". – T.: "O'zbekiston", 2019. – 156-b



Suhbatdosh boshini sal sarson chayqadi, ko'zoynagini sekin tushirib, unga pastdan sovuq tikildi.

Bu parchada paralingvistik vositalar qahramonlar o'rtasidagi ziddiyat, ruhiy qarama-qarshilik va qat'iyatni ochishga xizmat qilgan. *"Stolni barmoqlari bilan urib"* harakati suhbatdoshning jahli va bosimini, *"qaddini tik tutdi"* esa yigitning qo'rqmasligi va o'z pozitsiyasida qat'iy turishini ifodalaydi. *"Ko'zlarida g'azab uchqunlari yonardi"* tasviri ichki hissiyotning tashqi nigoh orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Yigitning *"sekin, lekin har bir so'zga urg'u berib"* gapirishi esa uning vazmin, ammo qat'iy munosabatini ta'kidlaydi. *"Boshini sal sarson chayqadi"* va *"pastdan sovuq tikildi"* harakatlari esa suhbatdoshning noroziligi, ishonchsizligi va yashirin tahdidini ifodalaydi. Umuman, ushbu paralingvistik vositalar hokimiyat va vijdon, bosim va qat'iyat o'rtasidagi ziddiyatni kuchaytirib, qahramonlarning ruhiy holatini verbal nutqdan tashqari vositalar orqali ochib beradi.

XULOSA


Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, paralingvistik vositalar o'zbek milliy muloqot madaniyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular verbal nutq mazmunini to'ldirish, qahramonlarning ruhiy-emotsional holati va kommunikativ munosabatini ifodalash bilan birga, milliy-madaniy qadriyatlarni ham namoyon etadi. Badiiy asarlardagi *bosh egish, nigoh, sukut, qo'l harakatlari, ovoz balandligi, intonatsiya, xo'rsinish* kabi vositalar o'zbekona *hurmat, andisha, hayo, nomus, mehr-oqibat* va *hissiyotni tiyish* kabi qadriyatlar bilan uzviy bog'liq. O'zbek badiiy nasrida paralingvistik va noverbal vositalarni lingvomadaniy aspektda o'rganish adiblarimizning inson ruhiyatini tasvirlashdagi va milliy muloqot madaniyatini matnga ko'chirishdagi yuqori mahoratini ochib berishda, shuningdek, milliy tilshunosligimizning pragmalingvistika va lingvokulturologiya yo'nalishlarini yanada boyitishda alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Demak, paralingvistik vositalarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish o'zbek xalqining milliy kommunikativ xulqi, dunyoqarashi va muloqot me'yorlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu jihatdan badiiy adabiyot, og'zaki nutq va milliy odob-axloq manbalari o'zbek paralingvistik birliklarining milliy-madaniy mazmunini ochib beruvchi muhim manbalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kolshanskiy G. V. Paralingvistika. – M.: Nauka, 1974. – 96 s.
2. Saidxanov M. Paralingvisticheskie sredstva v uzbekskoy razgovornoy rechi: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1981. – 22 s.
3. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 184 b.



4. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining sotsiolingvistik xususiyatlari: Filol. fan. dok. ... diss. – Toshkent, 2000. – 268 b.
5. Nurmonov A., Hojiyev A. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2010. – 320 b.
6. Iskandarova Sh. O‘zbek tili muloqot xulqining formal va mazmuniy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Samarqand, 1993. – 145 b.
7. Yusupov U.K. Lingvokulturologiya va uning asosiy tushunchalari. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. – №6. – B. 12-18.
8. Ziyamukhamedova Sh. O‘zbek tilida noverbal vositalarning pragmalingvistik xususiyatlari. // Filologiya masalalari. – Toshkent, 2018. – №2. – B. 45-49.





**TALABALARDA TOLERANTLIK NAMOYON
BO‘LISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

**FACTORS INFLUENCING THE MANIFESTATION
OF TOLERANCE AMONG STUDENTS**

**ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЯВЛЕНИЕ
ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ**

FAN TARMOG‘I
19.00.00 – Psixologiya

QABUL QILINDI
13.08.2026

CHOP ETILDI
16.08.2026

Sh.S.Abdusamatova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrası dotsenti v.b.,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Talabalarda tolerantlikning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish ko‘plab ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tolerantlik, odatda, boshqalarni hurmat qilish, ularning fikr va qadriyatlariga toqat qilish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikma sifatida qaraladi.

Kalit so‘zlar: Tolerantlik, ta’lim, muhit, madaniyat, fikr, millat, qobiliyat, dunyoqarash, qadriyat, hurmat ko‘rsatish.

ABSTRACT

Analyzing the factors influencing the manifestation of tolerance among students involves a number of social, psychological, and pedagogical aspects. Tolerance is generally considered a social skill associated with respecting others and the ability to accept their opinions and values.

Keywords: Tolerance, education, environment, culture, opinion, nationality, ability, worldview, values, respect.

АННОТАЦИЯ

Анализ факторов, влияющих на проявление толерантности у студентов, включает в себя множество социальных, психологических и педагогических аспектов. Толерантность обычно рассматривается как социальный навык, связанный с уважением к другим людям и способностью принимать их мнения и ценности.

Ключевые слова: толерантность, образование, среда, культура, мнение, нация, способность, мировоззрение, ценность, уважение.

KIRISH

Talabalarda tolerantlikning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish ko‘plab ijtimoiy, psixologik va pedagogik jihatlarni o‘z ichiga oladi.



Tolerantlik, odatda, boshqalarni hurmat qilish, ularning fikr va qadriyatlariga toqat qilish qobiliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ko‘nikma sifatida qaraladi.

ASOSIY QISM

Bu ko‘nikmaning shakllanishiga quyidagi asosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Oilaviy tarbiya va madaniy muhit. Oila tolerantlikning shakllanishida birinchi va eng muhim institut hisoblanadi. Oila a’zolarining madaniyati, o‘zaro munosabatlari va ularning dunyoqarashi talabaning tolerantligini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Farzandning yoshlikdan turli millat, din va madaniyat vakillariga bo‘lgan hurmati oiladagi tarbiyaga bog‘liq.

2. Ta’lim muhitidagi xilma-xillik. Talabaning ta’lim olgan muhitida turli madaniyatlar, fikrlar va millat vakillarining mavjudligi uning tolerantlik qobiliyatini rivojlantiradi. Universitet yoki maktabda turli millat va din vakillari bilan muloqot qilish, talabaning dunyoqarashini kengaytirib, boshqa fikr va qadriyatlarga nisbatan hurmat ko‘rsatishni o‘rgatadi.

3. O‘qituvchilarning ta’siri va pedagogik yondashuvlar. O‘qituvchilarning o‘quvchilarga nisbatan ko‘rsatgan munosabati ham tolerantlikni rivojlantiruvchi omillardan biridir. O‘qituvchilar o‘zlari tolerant bo‘lishsa va bu xulq-atvorni talabalariga o‘rgatsalar, ular ham buni o‘zlashtiradilar. Demokratik va inkluziv pedagogik usullar, talabalar orasidagi xilma-xillikka e’tibor berish va hurmatli munosabatni targ‘ib qilish tolerantlikni oshiradi.

4. Ijtimoiy va madaniy ta’sirlar. Jamiyatning umumiy madaniyati, tolerantlik darajasi, va ommaviy axborot vositalarining ta’siri ham talabaning tolerantligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ommaviy madaniyat va jamiyatdagi stereotiplar, irqchilik yoki diniy diskriminatsiya talabalarning tolerantlik darajasiga ijobiy yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

5. Shaxsiy psixologik omillar. Talabaning shaxsiy hissiyoti, o‘zini anglash darajasi, stressga chidamliligi va empatiya qobiliyati ham tolerantlikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Empatiya – boshqalarning his-tuyg‘ularini anglay olish qobiliyati - tolerantlikning muhim asoslaridan biri hisoblanadi.

6. Muloqot va interfaol o‘quv usullari. Muloqot va o‘zaro hamkorlik talabalarda tolerantlikni shakllantirishning samarali usullaridan biri bo‘lib, muammolarni birgalikda hal qilish jarayonida talaba boshqalar bilan fikr almashadi, ularning nuqtai nazarini tinglaydi va hurmat qiladi. Shu bois universitetlarda guruhli va loyihaviy o‘quv usullaridan foydalanish tolerantlik darajasini oshiradi.

7. Global jarayonlar va axborot texnologiyalari. Internet va globalizatsiya davrida talabalarning turli madaniyatlar va jamiyatlar bilan aloqalari kengaymoqda. Bu esa ularni dunyoqarashini kengaytirib, turli xil fikr va qadriyatlarga nisbatan ochiq bo‘lishga undaydi.

Yuqoridagi omillar talabalarning tolerantlik darajasini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularni to'g'ri yo'naltirish orqali ijtimoiy hamjihatlik va ko'plab turli madaniy guruhlar o'rtasidagi hurmatli munosabatni ta'minlash mumkin. Mazkur omil bog'lanishlari shuni ko'rsatadiki, tolerantlik va qadriyatlar o'rtasidagi korrelyatsiyalar shaxsning ijtimoiy va madaniy munosabatlarda qanday xulq-atvor ko'rsatishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tolerantlik qadriyatlar asosida shakllanib, ijtimoiy muhitda barqarorlik va bag'rikenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tolerantlik namoyon bo'lishida ijtimoiy-kognitiv operatsiya sifatida quyidagi ketma-ketlik sodir bo'ladi: boshqa kishilarning nuqtai nazarini hisobga olish; shaxsning muammoni o'zi mustaqil hal eta olishi yoki boshqalarning yordamiga muhtojligini baholay olishi; empatiya asosida tolerantlik motivatsiyasini shakllantirish; zaruriy yordamni ko'rsatish borasida shaxsiy imkoniyatlarini baholashi; hamkorlikdagi faoliyat jarayonida yordam ko'rsatishni rejalashtirish.

Shaxs tolerantligini namoyon bo'lishida xulq-atvor stereotiplarini anglay boshlagandan so'ng refleksiv empatiyani shakllantirishga urg'u berish lozim.

Shaxs xulq-atvorini korreksiyalashtirishda qo'llaniladigan terapiya usullaridan biri – bu imagoterapiyadir. Imagoterapiya ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda shaxsga o'z xatti-harakatlari, kechinmalarini og'zaki bayon qilishga imkon beriladi. Bunda talaba o'zining kimgadir yordam bergan va kimdir uning yordamiga muhtoj bo'lgan vaqtida yordam qo'lini cho'zmaganligi bilan bog'liq xatti-harakatlarini hikoya qilib beradilar. O'zlarining holatlarini hikoya qilishda albatta tahliliy ma'lumotlar berilishiga e'tibor qaratish darkor. Ikkinchi bosqichda, esa aynan guruh ishtirokchilari tomonidan "yordam berish" va "yordam bermaslikka" asoslangan syujet sahnalashtiriladi. Ishtirokchilar ijro etilgan personajning xulq-atvoridagi "ijobiy" va "salbiy" tomonlarini tahlil qiladilar. Shaxsdagi refleksiya natijasida talabalar o'zlarini "yordamga muhtoj" va "yordamga shay" inson pozitsiyasidan baholaydilar.

Refleksiv empatiyani shakllantirishda turli rolli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. SHu tariqa axloqiy stereotiplarni inteorizatsiyasiga erishiladi, natijada shaxs qadriyatlar tizimiga singib boradi. N.Ayzenberg shaxsda tolerantlik rivojlanishida ijtimoiy-kognitiv faktorlar, shu bilan birga refleksiv empatiya (shaxsning haqiqiy psixologik holatini baholay olish qobiliyatining o'rnini alohida ta'kidlaydi

Talabalarda tolerantlikning namoyon bo'lishida keltirib o'tilgan natijalariga asoslangan holda quyidagilarni qayd qilish mumkin:

1. Talabalarda tolerantlikning namoyon bo'lishi yoshga oid ravishda dinamik harakterga ega bo'lib, shaxsning kasbiy shakllanishi negizida rivojlanib borishi kuzatildi;

2. Talabalardagi tolerantlikning tarkibiy komponentlaridan bo'lgan sosial tolerantlik o'ziga xos gender xususiyatlarga bog'liq ravishda differensiasiyalanishi kuzatildi;

3. Talabalardagi tolerantlikning shaxs xususiyati sifatida lokus nazoratning ikki qutbli ta'siriga integral namoyon bo'lishi aniqlandi.

Talabalarda tolerantlikni namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlarini empirik o'rganishda qo'yidagi xulosalarga keldik:

1. Talabalarning ijtimoiy muxi tomonidan tan olinishi, ijtimoiy mavqeining oshishi, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining o'sishi, o'zini ko'rsatish va ro'yobga chiqarish ehtiyojining hamda shaxslararo munosabatlar tangligining ortishi, o'z navbatida, talabalardan sabr-toqatli, bag'rikeng, chidamli, xayrixoh va hamjihat bo'lishni talab etadi. Ba'zi ijtimoiy vaziyatlarda ular o'zlarining tolerantlik xislatlarini namoyon qilsa, ba'zida intolerantlik xislatlarini namoyon qilishadi va bu o'z navbatida yuzaga kelgan ijtimoiy voqeliklarga nisbatan loqaydlikni, befarqlikni shakllantiradi.

2. Shaxs sub'ektiv lokal nazorat xususiyati o'z rivojlanishida muayyan me'yoriy chegaralarni bosib o'tgach, ikki psixologik tuzilma o'rtasidagi aloqadorlik bir tekis o'zgarmasligi va o'zga vektorlar bo'yicha ketishi mumkinligi o'z isbotini topdi.

Talabalarning ijtimoiy xulq-atvorida yo'nalganlik xususiyatlarini belgilab beruvchi barqaror lokus nazorati sifatleri uning tolerantlikga bo'lgan moyilligida o'zini namoyon etishi bilan farqlanar ekan.

3. Shaxsdagi tolerantlikni namoyon bo'lishida uning emosional komponentlari – emosional intellekt, ayniqsa, emosional bilimdonlik va o'z-o'ziga emosional motivasiya berish muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalik davri emosional senzitivligi bilan ajralib turuvchi davrlardan hisoblanishi bilan bir qatorda, shaxsga nisbatan empatiyani his etish va uning emosiyalarini tahlil qilish orqali identifikasiyalash shaxsni bevosita tolerantligini oshishida katta ahamiyat kasb etadi.

4. Talabalarni tolerantlik sifatleri bilan shaxslilik omillari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish natijasida ulardagi barcha xususiyatlari jumladan, kognitiv, ijtimoiy, oilaviy omillar asosiy ahamiyat kasb etib ulardagi mustaqillik, faoliyatlarini samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shunday ekan, talabalar o'zilariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari, kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiq.

XULOSA

Ushbu bog'lanishlar talabalarning tolerantligi va emotsional intellekti o'rtasidagi chuqur bog'liqliklarni ochib beradi va bu omillar o'zaro qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Tolerantlik va emotsional intellektning rivojlanishi



talabalarining ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli moslashishi va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarning mustahkamlanishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Asmolov A.G. Tolerantnost: ot utopii k realnosti // Na puti k tolerantnomu soznaniyu. – M.: Smysl, 2000. – S. 5–8.
2. Galkin A.A. Tolerantlik madaniyati globallashuv chaqiriqlari oldida / A.A. Galkin, Yu.A. Krasin // Sotsiologik tadqiqotlar. – Moskva, 2003. – № 8. – B. 64–74.
3. Bag‘rikenglik g‘oyalari – yoshlar kutubxonalari faoliyati amaliyotida // Yangi kutubxona. – Moskva, 2006. – № 7 (67). – B. 38–44.
4. Ilchenko L. Ko‘pmadaniyatlilik va bag‘rikenglik pedagogikasi // Maktabgacha ta’lim. – Moskva, 2004. – № 8. – B. 20–22.
5. Ionina O.S. O‘smirlarda ichki shaxsiy nizolarni bartaraf etish vositasi sifatida bag‘rikenglikni shakllantirish: dissertatsiya psixologiya fanlari nomzodi: 19.00.07. – Qozon, 2005. – 185 b.
6. Karimova V., Berdiev G. Murosa qilish odobi ëki konfliktlarni bartaraf ëtish mumkinmi? – T.: O‘zPFITI, 2003. – 44 b.
7. Abdusamatova Sh.S. Rivojlanish psixologiyasi va pedagogik psixologiya: psixologiya fakulteti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «ISHONCHLI HAMKOR», 2021. – 240 b
8. Karimova ë. O‘zbek tolerantligi. – T.: Aloqachi, 2005. – B. 7–12.
9. Soldatova G.U., Shaygerova L.A. va boshqalar tahriri ostida. Psixodiagnostika va tolerantlikni tadqiq etish bo‘yicha praktikum. – Moskva: M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, 2003. – 112 b.
10. Samarov R.S. Psixologik himoya: muammo va yechimlar (metodologik yondashuv) // O‘zbekistonda amaliy psixologiyaning bugungi holati va rivojlanish istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari (Toshkent, 27 sentyabr 2008 yil). 2-tom. – T.: «ChP Malseva», 2008. – B. 53–54.
11. Abdusamatova Sh.S. Ontogenez psixologiyasi: darslik. – Toshkent: «ZEDO PRINT», 2022. – 240 b.
12. Abdusamatova Sh.S. Umumiy psixologiya: darslik. – Toshkent: «Renessans sari», 2024. – 412 b.
13. Щеколдина С.Д. Тренинг толерантности. М.: «Ос-89», 2004. С. 14–15.
14. Солдатов Г.У. Толерантность – норма жизни в мире разнообразия // Вопросы психологии. – М., 2002. – № 1. – С. 132–135.
15. Abdusamatova Sh.S. Pedagogik-psixologik xizmat va yondashuvning ayrim imkoniyatlari: monografiya. – Toshkent: «Sarbon LLS» nashriyoti, 2024. – 128 b.



**БЎЛАЖАК ОНА ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ
ЛИНГВОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ**

**MECHANISMS FOR IMPROVING THE
LINGUOCULTURAL COMPETENCE OF FUTURE
MOTHER TONGUE TEACHERS**

**МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ
ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ РОДНОГО ЯЗЫКА**

FAN TARMOG‘I
13.00.00 – Pedagogika

QABUL QILINDI
14.08.2026

CHOP ETILDI
17.08.2026

Д.У.Дуйсабаева
ЧДПУ доценти

АННОТАИЯ

Мақолада бўлажак она тили ўқитувчиларининг лингвомаданий компетентлигини такомиллаштиришнинг илмий-назарий ва педагогик асослари ёритилган. Лингвомаданий компетентлик тил бирликларида ифодаланган миллий-маданий мазмунни англаш, уларни муайян нутқий вазиятга мувофиқ қўллаш, миллий қадриятлар ва маданий меъёрларни идрок этиш ҳамда мазкур билимларни таълим жараёнига татбиқ этиш қобилияти сифатида талкин қилинган. Тадқиқотнинг мақсади бўлажак она тили ўқитувчиларининг лингвомаданий компетентлигини такомиллаштириш механизмларини ишлаб чиқиш ва педагогик жиҳатдан асослашдан иборат. Тадқиқотда тизимли, компетенциявий, лингвомаданий, коммуникатив ва шахсга йўналтирилган ёндашувлардан фойдаланилган. Лингвомаданий компетентликнинг когнитив, мотивацион-қадриятли, лингвомаданий-фаолиятли ва рефлексив компонентлари аниқланган. Уни такомиллаштиришнинг мотивацион-қадриятли, лингвомаданий-таҳлилий, матнга асосланган, коммуникатив-фаолиятли, рефлексив ва рақамли-таълимий механизмлари таклиф этилган. Она тили таълимида миллий-маданий лексика, фразеологизмлар, мақол ва маталлар, нутқий этикет бирликлари, миллий концептлар ҳамда бадиий матнлардан самарали фойдаланиш бўлажак ўқитувчининг лингвомаданий компетентлигини ривожлантиришнинг муҳим шарти экани асосланган. Тадқиқот натижаларидан она тили ўқитиш методикаси, лингвомаданиятшунослик, нутқ маданияти, лексикология ва фразеология фанларини ўқитишда фойдаланиш мумкин.

Калит сўзлар: лингвомаданий компетентлик, бўлажак она тили ўқитувчиси, она тили таълими, лингвомаданиятшунослик, миллий-маданий лексика, миллий концепт, нутқий этикет, бадиий матн, касбий компетентлик.

ABSTRACT

The article examines the theoretical and pedagogical foundations for improving the linguocultural competence of future native language teachers. Linguocultural competence is understood as the ability to comprehend the national and cultural content expressed through language units, use them appropriately in specific communicative situations, understand national values and cultural norms, and apply relevant knowledge in the educational process. The purpose of the study is to develop and substantiate pedagogical mechanisms for improving the linguocultural competence of future native language teachers. The study employs systemic, competency-based, linguocultural, communicative and learner-centred approaches. The cognitive, motivational-value, linguocultural-activity and reflective components of linguocultural competence are identified. Motivational-value, linguocultural-analytical, text-centred, communicative-activity, reflective and digital educational mechanisms are proposed for its improvement. The study substantiates that the effective use of national-cultural vocabulary, phraseological units, proverbs and sayings, speech etiquette units, national concepts and literary texts in native language education contributes significantly to the development of future teachers' linguocultural competence. The findings can be applied in teaching native language methodology, linguocultural studies, speech culture, lexicology and phraseology.

Keywords: linguocultural competence, future native language teacher, native language education, linguocultural studies, national-cultural vocabulary, national concept, speech etiquette, literary text, professional competence.

АННОТАЦИЯ

В статье освещены научно-теоретические и педагогические основы совершенствования лингвокультурологической компетентности будущих учителей родного языка. Лингвокультурологическая компетентность рассматривается как способность понимать национально-культурное содержание языковых единиц, использовать их в соответствии с конкретной речевой ситуацией, воспринимать национальные ценности и культурные нормы, а также применять полученные знания в образовательном процессе. Цель исследования заключается в разработке и педагогическом обосновании механизмов совершенствования лингвокультурологической компетентности будущих учителей родного языка. В исследовании использованы системный, компетентностный, лингвокультурологический, коммуникативный и личностно ориентированный подходы. Выделены когнитивный, мотивационно-ценностный, лингвокультурологически-деятельностный и рефлексивный компоненты лингвокультурологической компетентности. Предложены мотивационно-ценностный, лингвокультурологически-аналитический,

текстоцентрический, коммуникативно-деятельностный, рефлексивный и цифровой образовательный механизмы ее совершенствования. Обосновано, что эффективное использование национально-культурной лексики, фразеологизмов, пословиц и поговорок, единиц речевого этикета, национальных концептов и художественных текстов в обучении родному языку является важным условием развития лингвокультурологической компетентности будущего учителя. Результаты исследования могут быть использованы при преподавании методики обучения родному языку, лингвокультурологии, культуры речи, лексикологии и фразеологии.

Ключевые слова: лингвокультурологическая компетентность, будущий учитель родного языка, обучение родному языку, лингвокультурология, национально-культурная лексика, национальный концепт, речевой этикет, художественный текст, профессиональная компетентность.

КИРИШ

Замонавий таълим жараёнида бўлажак ўқитувчининг касбий компетентлиги унинг фақат предметга оид билимлари билан эмас, балки турли маданий муҳит вакиллари билан самарали мулоқот қила олиши, маданий фарқларни англаши ва уларга нисбатан толерант муносабатни намоён эта билиши билан ҳам белгиланади. Глобаллашув, академик мобиллик, халқаро таълим дастурлари ва рақамли коммуникация воситаларининг кенг тарқалиши таълим субъектларидан лингвомаданий жиҳатдан тайёр бўлишни талаб этмоқда.

Айниқса, бўлажак она тили ўқитувчилари учун лингвомаданий компетентлик алоҳида аҳамиятга эга. Чунки она тили таълими нафақат тилнинг фонетик, лексик, грамматик ва синтактик қурилишини ўргатиш, балки тил воситасида мужассамлашган миллий тафаккур, тарихий хотира, қадриятлар, урф-одатлар ва халқнинг маънавий тажрибасини авлоддан авлодга етказиш вазифасини ҳам бажаради.

Тил ва маданият бир-биридан ажралмас ходисалар бўлиб, халқнинг миллий дунёқараши тил бирликларида ўз аксини топади. Хусусан, мақол ва маталлар, фразеологизмлар, миллий-маданий лексика, антропонимлар, топонимлар, мурожаат шакллари, нутқий этикет бирликлари ва бадий образлар муайян халқнинг маданий тажрибасини ифодалайди.

Шу нуқтаи назардан, бўлажак она тили ўқитувчисининг лингвомаданий компетентлигини такомиллаштириш нафақат тилшунослик, балки миллий таълим ва тарбия самарадорлигини таъминлашнинг ҳам муҳим омили ҳисобланади.

АСОСИЙ ҚИСМ

Она тили таълимида тил бирликларининг шаклий ва грамматик хусусиятларини ўрганишга эътибор кучли бўлгани ҳолда, уларнинг миллий-маданий семантикаси ва инсон тафаккури билан боғлиқ жиҳатларини чуқур таҳлил қилишга эҳтиёж мавжуд.

Масалан, «меҳмон», «маҳалла», «ҳашар», «ор-номус», «андиша», «меҳр-оқибат», «каттага ҳурмат», «кичикка иззат» каби тушунчалар ўзбек миллий маданиятида муайян концептуал мазмунга эга. Уларни бошқа тиллардаги формал эквивалентлар билан алмаштириш уларнинг тўлиқ миллий-маданий маъносини ифодаламаслиги мумкин.

Шунингдек, «кўнгил», «юрак», «дил», «юз», «кўл» каби лексемалар кўплаб фразеологик бирликлар таркибида нафақат предметлик маъноси, балки миллий-маданий коннотацияни ҳам ифодалайди.

Демак, бўлажак она тили ўқитувчиси тил бирликларини грамматик ва лексик жиҳатдан таҳлил қилиш билан бир қаторда, уларнинг миллий-маданий семантикасини ҳам очиқ бера олиши зарур.

Лингвомаданий компетентлик – шахснинг тилда ифодаланган миллий-маданий мазмунни англаши, тил бирликларининг маданий семантикаси ва коннотацияларини таҳлил қила олиши, нутқий мулоқотда миллий-маданий меъёрларга амал қилиши ҳамда эгалланган билимларни таълим жараёнида қўллай олиш қобилиятидир.

Бўлажак она тили ўқитувчиси учун мазкур компетентлик икки йўналишда намоён бўлади.

Биринчидан, у шахсий-коммуникатив компетентлик сифатида ўқитувчининг ўз нутқида миллий-маданий меъёрларга амал қилишини таъминлайди.

Иккинчидан, у касбий-педагогик компетентлик сифатида ўқитувчининг ўқувчиларга тил бирликларидаги миллий-маданий мазмунни тушунтириш ва уларда лингвомаданий тафаккурни шакллантириш қобилиятини белгилайди.

Шу боис бўлажак она тили ўқитувчисининг лингвомаданий компетентлигини «тилни билиш»дан кенгроқ тушунча сифатида талқин қилиш мақсадга мувофиқ.

ЛИНГВОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИНГ ТАРКИБИЙ КОМПОНЕНТЛАРИ

Тадқиқотда бўлажак она тили ўқитувчисининг лингвомаданий компетентлиги тўрт компонентдан иборат яхлит тизим сифатида қаралади.

1. Когнитив компонент

Когнитив компонент ўзбек тили ва миллий маданиятнинг ўзаро боғлиқлиги ҳақидаги билимларни қамраб олади.



У қуйидагиларни ўз ичига олади:

- миллий-маданий лексика;
- фразеологик бирликлар;
- мақол ва маталлар;
- миллий концептлар;
- нутқий этикет;
- миллий реалиялар;
- тарихий-маданий номлар;
- бадиий матндаги миллий образлар;
- миллий-маданий семантика.

2. Мотивацион-қадриятли компонент

Бу компонент бўлажак ўқитувчининг она тили ва миллий маданиятга бўлган ижобий муносабатини ифодалайди.

Унда:

- она тилига ҳурмат;
- миллий қадриятларга қизиқиш;
- миллий маданий меросни асрашга масъулият;
- бошқа маданиятларга ҳурмат;
- маданий хилма-хилликни қабул қилиш каби сифатлар намоён бўлади.

3. Лингвомаданий-фаолиятли компонент

Мазкур компонент талабанинг тил бирликларини уларнинг миллий-маданий контекстида таҳлил қилиш ва бу билимларни педагогик фаолиятда қўллай олишини назарда тутди.

Масалан, талабага «кўнгли тоғдек кўтарилди», «кўнглига қарамоқ», «юзи ёруғ бўлмоқ» каби фразеологик бирликлар берилиб, уларнинг:

луғавий маъноси → фразеологик маъноси → миллий-маданий коннотацияси → қўлланиш контексти → ўқитиш методикаси асосида таҳлил қилиниши мумкин.

4. Рефлексив компонент

Рефлексив компонент бўлажак ўқитувчининг ўз лингвомаданий билимлари ва педагогик фаолиятини таҳлил қилиши билан боғлиқ.

Талаба ўз олдига қуйидаги саволларни қўяди:

- Мен миллий-маданий мазмунни тўғри талқин қилаяпманми?
- Тил бирлигининг шакли ва маданий маъносини фарқлай оламанми?
- Ўқувчига мазкур бирликнинг миллий хусусиятини қандай тушунтираман?
- Менинг талқинимда стереотип ёки субъектив қараш мавжуд эмасми?

БЎЛАЖАК ОНА ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

1. Миллий-маданий мотивация механизми

Мазкур механизмнинг асосий мақсади талабаларда она тилининг миллий-маданий бойликларига қизиқиш уйғотишдир.

Бунинг учун дарсларда:

- «Тилда миллий характернинг ифодаланиши»;
 - «Мақолларда халқ тафаккури»;
 - «Фразеологизмларда миллий дунёқараш»;
 - «Она тили нутқий этикети»;
 - «Миллий концептлар ва уларнинг тилдаги ифодаси»
- каби мавзуларда ижодий топшириқлар ташкил этиш мумкин.

2. Лингвомаданий таҳлил механизми

Бу механизм тил бирликларини миллий-маданий контекстда таҳлил қилишга асосланади.

Масалан:

«Ота-она рози – Худо рози» мақолини ўрганишда талаба фақат унинг грамматик қурилишини эмас, балки унда ифодаланган ота-онага ҳурмат, оилавий қадрият ва миллий-ахлоқий қарашларни ҳам таҳлил қилади.

Шу тарзда мақоллар, маталлар, фразеологизмлар ва бадиий матнлар лингвомаданий таҳлил объектига айлантирилади.

3. Матнга асосланган лингвомаданий механизм

Бўлажак она тили ўқитувчисининг лингвомаданий компетентлигини шакллантиришда бадиий матн алоҳида аҳамиятга эга.

Адабий асарларда халқнинг:

- тарихи;
- урф-одатлари;
- миллий характер хусусиятлари;
- оилавий муносабатлари;
- меҳнат маданияти;
- ахлоқий қадриятлари;
- миллий нутқ услуби

кенг акс этади.

Шу сабабли бадиий матнни лингвомаданий таҳлил қилиш махсус педагогик технология сифатида қўлланилиши мумкин.

4. Коммуникатив-фаолиятли механизм

Талабаларда лингвомаданий билимларни амалий кўникмага айлантириш учун ролли ўйинлар, дискуссиялар, сахналаштириш, кейс-стади ва лойиҳалардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Масалан, «Меҳмон кутиш маданияти», «Устоз ва шогирд муносабати», «Катта авлод ва ёшлар мулоқоти», «Расмий ва норасмий мурожаат» каби вазиятлар моделлаштирилади.

Талаба мазкур вазиятларда миллий нутқий этикет меъёрларига мувофик мулоқотни ташкил этиши керак.

5. Рефлексив механизм

Рефлексив механизм талабанинг ўз фаолиятини таҳлил қилишини таъминлайди.

Бунда:

- рефлексив кундалик;
- лингвомаданий портфолио;
- ўз-ўзини баҳолаш;
- ўзаро баҳолаш;
- «Мен бугун нимани англадим?» шаклидаги таҳлилий топшириқлар самарали восита бўлиши мумкин.

6. Рақамли-лингвомаданий механизм

Рақамли таълим воситалари орқали миллий-маданий контентни интерактив шаклда ўрганиш имконияти кенгайди.

Масалан, талабалар:

- электрон лингвомаданий луғат;
- рақамли мақоллар базаси;
- фразеологизмлар электрон картотекаси;
- миллий концептлар харитаси;
- мультимедиа лойиҳалар;
- рақамли ҳикоялар

яратишлари мумкин.

Бу жараён талабани тайёр маълумотни қабул қилувчидан мустақил лингвомаданий контент яратувчи субъектга айлантиради.

ПЕДАГОГИК МОДЕЛЬ

Бўлажак она тили ўқитувчиларининг лингвомаданий компетентлигини такомиллаштириш модели куйидаги изчилликда амалга оширилиши мумкин:

Мотивация → лингвомаданий билим → таҳлил → коммуникатив фаолият → педагогик қўллаш → рефлексия → баҳолаш.

Мазкур модельнинг ўзига хослиги шундаки, талаба аввал миллий-маданий мазмунни англайди, кейин уни тил материали асосида таҳлил қилади, сўнгра коммуникатив ва педагогик вазиятда қўллайди ҳамда ўз фаолиятини рефлексив баҳолайди.

ЛИНГВОМАДАНИЙ ТОПШИРИҚЛАР ТИЗИМИ



Бўлажак она тили ўқитувчилари учун қуйидаги топшириқлар тизимини таклиф қилиш мумкин:

Топшириқ тури	Мазмуни	Ривожланадиган компетенция
Лексик таҳлил	Миллий-маданий лексикани аниқлаш	Когнитив
Фразеологик таҳлил	Фразеологизмларнинг миллий мазмунини очиш	Когнитив-фаолиятли
Мақол таҳлили	Мақолларда миллий қадриятларни аниқлаш	Лингвомаданий
Матн таҳлили	Бадиий матнда миллий образ ва концептларни аниқлаш	Таҳлилий
Ролли ўйин	Миллий нутқий вазиятни моделлаштириш	Коммуникатив
Лойиҳа	Миллий-маданий луғат ёки электрон ресурс яратиш	Ижодий-фаолиятли
Рефлексия	Ўз лингвомаданий фаолиятини баҳолаш	Рефлексив

ХУЛОСА

Бўлажак она тили ўқитувчиларининг лингвомаданий компетентлигини такомиллаштириш она тили таълими мазмунини замонавий компетенциявий ёндашув асосида бойитишнинг муҳим шартларидан биридир.

Она тили ўқитувчиси учун тил – фақат коммуникация воситаси эмас, балки миллий хотира, миллий тафаккур ва маданий қадриятларни ифодаловчи тизимдир. Шу сабабли бўлажак ўқитувчи тил бирликларининг грамматик ва лексик хусусиятлари билан бир қаторда, уларнинг миллий-маданий семантикаси ва коммуникатив вазифасини ҳам англаши зарур.

Тадқиқот натижасида лингвомаданий компетентликни такомиллаштиришнинг асосий механизмлари сифатида миллий-маданий мотивация, лингвомаданий таҳлил, матнга асосланган таълим, коммуникатив-фаолиятли ёндашув, рефлексия ва рақамли лингвомаданий таълим механизмлари белгиланди.

Мазкур механизмларни она тили ўқитиш методикаси, амалий тилшунослик, нутқ маданияти, лексикология, фразеология ва адабиёт билан интеграциялашган ҳолда қўллаш бўлажак ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини янада юксалтириш имконини беради.

Энг муҳими, бундай ёндашув бўлажак она тили ўқитувчисини фақат тил қоидаларини тушунтирувчи мутахассис эмас, балки миллий тил ва



маданиятнинг маънавий қадриятларини англаувчи, уларни ёш авлодга етказувчи ва ўқувчиларда лингвомаданий тафаккурни шакллантирувчи педагог сифатида тайёрлашга хизмат қилади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Byram M. *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence*. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997.
2. Deardorff D. K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // *Journal of Studies in International Education*. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 241–266.
3. Телия В. Н. *Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты*. – Москва: Языки русской культуры, 1996.
4. Дуйсабаева Д. Лингвомадени кўзиреттилігін болашақ қазақ тілі және әдебиеті мамандарын даярлаудағы маңызы // “Pedagogik ta’lim klasteri: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari. – Chirchiq, 2021. – 1693–1697 b.
5. Duysabayeva D. Formation of Linguo-Culturological Competence of Future Native Language Specialists // *International Journal of Social Science Research and Review*. – 2022. – Vol. 5, Issue 4.
6. Duysabayeva D. Lingvomadaniy kompetentlikni takomillashtirish modeli // “Til va adabiyot.uz” Ilmiy-metodik elektron jurnal. – Toshkent, 2024. – 18-son.
7. Duysabayeva D. Qozoq dialektologiyasidagi madaniy kod masalasi: Monografiya. – Chirchiq: Zebo prints, 2025. – 7,25 b.t.
8. Duysabayeva D.U. Bo‘lajak qozoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarida lingvomadaniy kompetentlikni takomillashtirish: ped. fan. bo‘yicha fal. dok. (PhD) diss. avtoreferati. – Chirchiq, 2026.



**TEKNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA
O‘QUVCHILARNING AMALIY
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH
METODIKASI**

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’
PRACTICAL COMPETENCIES IN TEACHING THE
SUBJECT “TECHNOLOGY”**

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРАКТИЧЕСКИХ
КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ПРИ
ПРЕПОДАВАНИИ ПРЕДМЕТА “ТЕХНОЛОГИЯ”**

FAN TARMOG‘I
13.00.00 – Pedagogika

QABUL QILINDI
14.08.2026

CHOP ETILDI
17.08.2026

Go‘zal Ismatillayevna G‘aniyeva

Toshkent viloyati Chirchiq shahar 15-sonli ayrim fanlarga chuqur o‘qitiladigan
sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktabining birinchi toifali o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Texnologiya” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari tadqiq etilgan. Texnologik ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari, uning nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lashdagi imkoniyatlari hamda o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy va texnologik faoliyatini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida “Texnologiya” darslarini tashkil etish, amaliy mashg‘ulotlardan foydalanish, o‘quvchilarning loyihaviy faoliyatini yo‘lga qo‘yish, muammoli vaziyatlar yaratish va fanlararo integratsiyani ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda texnologik jarayonni rejalashtirish, material va vositalarni tanlash, amaliy ishni bajarish, natijani tahlil qilish hamda o‘z faoliyatini baholashning metodik imkoniyatlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: texnologiya fani, texnologik ta’lim, amaliy kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy faoliyat, texnologik jarayon, loyiha faoliyati, mustaqil ta’lim, ijodiy faoliyat, fanlararo integratsiya.

ABSTRACT

This article examines the pedagogical and methodological foundations for developing students’ practical competencies in the process of teaching the subject “Technology” in general secondary schools. The specific characteristics of technology education, its potential for connecting theoretical knowledge with practical activities, and its pedagogical significance in developing students’ independent, creative, and technological skills are discussed. The article analyzes the organization of “Technology” lessons based on a competency-based approach, the

use of practical activities, project-based learning, problem-based situations, and interdisciplinary integration. The methodological possibilities of developing students' practical competencies through planning technological processes, selecting appropriate materials and tools, carrying out practical tasks, analyzing results, and evaluating their own activities are also substantiated.

Keywords: Technology subject, technology education, practical competency, competency-based approach, practical activity, technological process, project-based learning, independent learning, creative activity, interdisciplinary integration.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются педагогические и методические основы развития практических компетенций учащихся в процессе преподавания предмета «Технология» в общеобразовательных школах. Раскрываются особенности технологического образования, его возможности в установлении взаимосвязи теоретических знаний с практической деятельностью, а также педагогическое значение в развитии самостоятельной, творческой и технологической деятельности учащихся. Анализируются вопросы организации уроков технологии на основе компетентного подхода, использования практических занятий, проектного обучения, проблемных ситуаций и межпредметной интеграции. Обосновываются методические возможности развития практических компетенций учащихся посредством планирования технологического процесса, выбора материалов и инструментов, выполнения практических заданий, анализа полученных результатов и оценки собственной деятельности.

Ключевые слова: предмет «Технология», технологическое образование, практическая компетентность, компетентный подход, практическая деятельность, технологический процесс, проектная деятельность, самостоятельное обучение, творческая деятельность, межпредметная интеграция.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish jarayonida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashi emas, balki ushbu bilimlardan amaliy faoliyatda samarali foydalana olishi muhim pedagogik natijalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta'limning kompetensiyaviy yo'nalishga o'tishi o'quvchining o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini turli hayotiy hamda amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini shakllantirishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan "Texnologiya" fani alohida metodik imkoniyatlarga ega.

“Texnologiya” fanining mazmuni o‘quvchilarning amaliy faoliyati bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, unda nazariy bilimlarni amaliy harakatlar orqali mustahkamlash, turli material va vositalardan foydalanish, texnologik jarayonlarni anglash, mahsulot yaratish va mehnat faoliyatini tashkil etish kabi jihatlar mujassamlashgan. Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida mazkur fan bo‘yicha o‘quvchilarning amaliy faoliyatini tashkil etish, amaliy darslarni o‘tkazish, baholash mezonlarini ishlab chiqish va o‘quv ustaxonalarini jihozlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilishi ham uning amaliy yo‘nalishini ko‘rsatadi.

Texnologiya ta‘limining zamonaviy mazmunida o‘quvchining tayyor mahsulotni mexanik tarzda yaratishi emas, balki uning mazkur mahsulotni yaratish jarayonini tushunishi, ishni oldindan rejalashtirishi, zarur material va vositalarni tanlashi, texnologik operatsiyalarni izchil bajarishi, xavfsizlik talablariga amal qilishi va yakuniy natijani tahlil qila olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma’noda amaliy kompetensiya texnologiya fanini o‘zlashtirishning muhim natijalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Texnologiya fanini o‘qitishga bag‘ishlangan ilmiy-metodik tadqiqotlarda ham kompetensiyaviy yondashuv, amaliy mashg‘ulotlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar va loyiha asosida ta‘limdan foydalanish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Xususan, texnologiya fanidan o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari tahlilida kompetensiyaviy yondashuv asosida ta‘lim mazmunini qayta tashkil etish zarurligi ta’kidlangan.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida “Texnologiya” fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

ASOSIY QISM

Texnologiya fanini o‘qitishda amaliy kompetensiyani shakllantirish masalasi, avvalo, kompetensiyaviy yondashuvning ta‘lim jarayonidagi mohiyatini aniqlashni talab etadi. Kompetensiyaviy yondashuvda ta‘lim natijasi o‘quvchining ma’lum hajmdagi bilimlarni egallashi bilangina belgilanmaydi. Muhimi, o‘quvchi egallagan bilimlarini real vaziyatlarda qo‘llay olishi, muammoni aniqlashi, uning yechimini izlab topishi va amaliy natijaga erisha olishidir. Texnologiya fanining amaliy tabiati esa bunday yondashuvni bevosita ta‘lim jarayoniga tatbiq etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Texnologiya fanini o‘qitish metodikasiga oid o‘quv adabiyotlarida texnologik ta‘limning asosiy didaktik tamoyillari sifatida onglilik va faollik, ilmiylik va tizimlilik, nazariya va amaliyot birligi, ko‘rsatmalilik, izchillik hamda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish masalalari

ko'rsatiladi. Shuningdek, texnologik jarayonni tahlil qilish, amaliy darslarni tashkil etish, texnologik-konstruktion xaritalardan foydalanish va tabiiy-ilmiy fanlar bilan o'zaro bog'liqlikni ta'minlash texnologik ta'lim metodikasining muhim tarkibiy qismlari sifatida qaraladi.

Demak, o'quvchining amaliy kompetensiyasi faqat muayyan buyumni yasay olish ko'nikmasi bilan chegaralanmaydi. U texnologik faoliyatning bir necha o'zaro bog'liq jihatlarini qamrab oladi. O'quvchi, avvalo, bajarilishi lozim bo'lgan vazifani anglaydi, uning yechimini rejalashtiradi, material va vositalarni tanlaydi, texnologik jarayonni amalga oshiradi, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladi va olingan natijani baholaydi. Bunday faoliyat jarayonida nazariy bilim amaliy harakatga aylanadi va o'quvchining texnologik tafakkuri shakllanadi.

Amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar alohida ahamiyatga ega. Chunki aynan amaliy mashg'ulot davomida o'quvchi o'zlashtirgan bilimlarini bevosita faoliyatda sinab ko'radi. Texnologiya fanining metodikasiga oid materiallarda amaliy darslarni tashkil etish va o'tkazish alohida metodik yo'nalish sifatida qaralishi ham mazkur faoliyatning ta'lim jarayonidagi o'rnini ko'rsatadi.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etishda o'quvchining faolligi va mustaqilligini ta'minlash muhimdir. Agar o'qituvchi butun amaliy jarayonni o'zi ko'rsatib, o'quvchidan faqat ushbu harakatlarni takrorlashni talab qilsa, bunda o'quvchining ijodiy va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish imkoniyati cheklanadi. Aksincha, o'quvchiga muayyan vazifa, texnologik talab va natijaga qo'yiladigan mezonlar berilib, yechimni mustaqil izlash imkoniyati yaratilsa, uning amaliy kompetensiyasi faolroq shakllanadi.

Bunda texnologiya darsining mazmuni "o'qituvchi ko'rsatadi – o'quvchi takrorlaydi" modelidan "o'quvchi muammoni anglaydi – rejalashtiradi – bajaradi – tekshiradi – takomillashtiradi" modeliga o'tishi maqsadga muvofiqdir. Mazkur modelda o'qituvchi tayyor yechimni beruvchi emas, balki o'quvchining amaliy faoliyatini tashkil etuvchi va yo'naltiruvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha asosida ta'limdan foydalanish ham muhim metodik imkoniyat yaratadi. Loyiha faoliyati o'quvchining muayyan mahsulot yoki texnologik yechimni mustaqil ravishda ishlab chiqishiga asoslanadi. Bunda o'quvchi muammoni aniqlaydi, zarur ma'lumotlarni izlaydi, mahsulotning dastlabki loyihasini ishlab chiqadi, materiallarni tanlaydi, amaliy ishni bajaradi va yakuniy natijani baholaydi.

Loyiha faoliyatining texnologiya darslari uchun ahamiyati shundaki, u nazariy bilim, amaliy ko'nikma va ijodiy faoliyatni yagona jarayonga birlashtiradi. Masalan, o'quvchiga ma'lum bir materialdan maishiy ehtiyoj uchun foydali buyum yaratish topshirig'i berilganda, u nafaqat texnologik amallarni bajaradi, balki materialning xususiyatini hisobga oladi, o'lchamlarni belgilaydi, dizayn yechimini tanlaydi va

tayyor mahsulotning funksional imkoniyatlarini baholaydi. Natijada amaliy kompetensiya bilan bir qatorda ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham rivojlanadi.

Texnologiya fanini o'qitish metodikasiga oid zamonaviy tadqiqotlarda ham amaliy mashg'ulotlar, loyiha asosida ta'lim, interfaol metodlar va STEAM yondashuvi o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositalari sifatida ko'rsatilmoqda. 2025-yilda e'lon qilingan tadqiqotlardan birida texnologiya fanini o'qitishning nazariy va amaliy asoslari, innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyiha asosida ta'lim va STEAM yondashuvi bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan.

Texnologiya darslarida muammoli ta'limdan foydalanish ham o'quvchining amaliy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli vaziyat o'quvchini mavjud bilimlarini qayta faollashtirishga, muammoning sabablarini aniqlashga va turli yechimlarni taqqoslashga undaydi. Masalan, o'quvchiga "berilgan materialdan kam miqdorda chiqindi hosil qilgan holda foydali mahsulot yaratish" vazifasining qo'yilishi uning materialdan oqilona foydalanish, texnologik jarayonni rejalashtirish va muqobil yechimlarni baholash qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday vazifalarda o'quvchi tayyor algoritmni takrorlamaydi, balki o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishga harakat qiladi.

Texnologiya fanini o'qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish ham amaliy kompetensiyaning mazmunini kengaytiradi. Chunki real texnologik faoliyat birgina fan doirasidagi bilimlar bilan chegaralanmaydi. Mahsulotni loyihalashda matematik hisob-kitoblar, geometrik bilimlar, chizmachilik elementlari, informatika vositalari, fizika va tabiiy fanlarga oid bilimlardan foydalanish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda ham texnologiya ta'limida integrativ yondashuv matematika, fizika, informatika, chizmachilik, ekologik madaniyat va iqtisodiy savodxonlik kabi yo'nalishlarni texnologik vazifa tarkibida birlashtirish imkonini beruvchi pedagogik mexanizm sifatida talqin qilinmoqda.

Bunday integratsiya o'quvchiga bilimlarni alohida-alohida emas, balki yagona amaliy vazifani hal qilish jarayonida qo'llash imkonini beradi. Natijada o'quvchi fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglaydi va nazariy bilimning amaliy ahamiyatini chuqurroq tushunadi. Bu esa texnologiya fanining ta'limiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Amaliy kompetensiyani rivojlantirishda o'quvchining mustaqil faoliyatini tashkil etish ham muhim metodik talab hisoblanadi. Mustaqil faoliyat jarayonida o'quvchi o'zining mavjud bilim va ko'nikmalariga tayanib, amaliy vazifaning yechimini izlaydi. Bunda o'qituvchi o'quvchining har bir harakatini nazorat qilishdan ko'ra, zarur metodik yo'nalish berishi va faoliyatni tahlil qilishga undashi lozim. Texnologiya ta'limiga oid metodik qo'llanmalarda ham o'qituvchining darsga tayyorgarligi, asbob-uskunalarini ishga sozlash, xomashyo va namuna tayyorlash,

ko'rgazmali va texnik vositalardan foydalanish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, texnologiya darslarida amaliy kompetensiyani shakllantirish jarayonini baholash ham o'ziga xos xususiyatga ega. O'quvchining faoliyatini faqat yakuniy mahsulotning tashqi ko'rinishiga qarab baholash kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini aniqlash imkonini bermaydi. Chunki bir xil mahsulotni ikki o'quvchi turli texnologik yo'l bilan yaratishi mumkin. Shu sababli baholashda o'quvchining vazifani tushunishi, ishini rejalashtirishi, material va vositalarni tanlashi, texnologik operatsiyalarni bajarishi, xavfsizlik qoidalariga rioya qilishi, mustaqil qaror qabul qilishi va yakuniy natijani tahlil qilishi kabi jihatlarni hisobga olish maqsadga muvofiq.

Bunday yondashuv baholashni faqat natijaga emas, balki faoliyat jarayoniga ham yo'naltiradi. O'quvchi o'z faoliyatining kuchli va zaif jihatlarini anglay boshlaydi, xatolarini aniqlaydi va keyingi amaliy faoliyatida ularni bartaraf etishga intiladi. Shu jihatdan reflektiv faoliyat ham amaliy kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin.

Texnologiya fanining amaliy yo'nalishi o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan ham chambarchas bog'liq. Mazkur fan tarixiy jihatdan mehnat ta'limidan texnologik ta'limga transformatsiyalangan bo'lib, zamonaviy bosqichda o'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga tayyorlash, kasb tanlashga yo'naltirish, ijodiy va tashabbuskor shaxsni shakllantirish vazifalarini ham qamrab oladi. Shu sababli texnologiya darslarida shakllantiriladigan amaliy kompetensiyalar o'quvchining nafaqat maktabdagi o'quv faoliyati, balki keyingi hayotiy va kasbiy faoliyati uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi ilmiy-metodik adabiyotlarda texnologiya fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning amaliy ko'nikmalar bilan bir qatorda kommunikativ, ijodiy va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlariga ham e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqotlarda texnologiya fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda amaliy mashg'ulotlar, loyiha asosida o'qitish, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish hard skills va soft skillsni rivojlantirish bilan bog'langan. Bu esa texnologiya fanining zamonaviy maktab ta'limidagi vazifasi an'anaviy mehnat ko'nikmalarini shakllantirish bilan cheklanmasligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning amaliy kompetensiyalarini rivojlantirish yaxlit metodik tizim sifatida qaralishi lozim. Mazkur tizimda kompetensiyaviy yondashuv ta'limning umumiy metodologik asosi bo'lsa, amaliy mashg'ulotlar, loyiha faoliyati, muammoli ta'lim, fanlararo integratsiya, mustaqil faoliyat va reflektiv baholash uning amaliy mexanizmlarini

tashkil etadi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi o‘quvchining texnologik faoliyatni ongli va mustaqil ravishda amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Texnologiya” fanini o‘qitishning mazmuni va metodikasini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish o‘quvchilarning amaliy faoliyatini rivojlantirish uchun muhim pedagogik shartlardan biridir. Texnologiya fanining o‘ziga xosligi nazariy bilimlarning amaliy harakat bilan bevosita bog‘lanishida namoyon bo‘ladi. Shu sababli mazkur fandagi ta’lim samaradorligini o‘quvchining faqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasi bilan emas, balki ushbu bilimlardan amaliy vaziyatlarda foydalana olishi bilan ham baholash zarur. Tadqiqot natijasida texnologiya fanida amaliy kompetensiya o‘quvchining texnologik vazifani anglash, faoliyatni rejalashtirish, material va vositalarni tanlash, texnologik operatsiyalarni bajarish, xavfsizlik talablariga amal qilish, mustaqil qaror qabul qilish, tayyor mahsulotni baholash va o‘z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarining yaxlitligi sifatida talqin qilinishi mumkinligi aniqlandi.

O‘quvchilarning bunday kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ta’lim jarayonini faqat reproduktiv faoliyat bilan cheklamasdan, o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga yo‘naltirish lozim. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha asosida ta’lim, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar, fanlararo integratsiya va mustaqil faoliyatdan foydalanish o‘quvchilarning texnologik bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkoniyatini kengaytiradi.

Shuningdek, texnologiya darslarida baholash jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunda yakuniy mahsulotning sifati bilan bir qatorda o‘quvchining ishni rejalashtirishi, texnologik jarayonni bajarishi, mustaqilligi, ijodiy yondashuvi, xavfsizlik talablariga rioya qilishi va o‘z faoliyatini baholay olishi ham e’tiborga olinishi kerak.

Umuman, “Texnologiya” fanini o‘qitishda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizim o‘quvchilarning texnologik tafakkuri, mustaqil va ijodiy faoliyati, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish qobiliyati hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi. Shu bois texnologik ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yanada takomillashtirish va amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan metodik vositalarni keng qo‘llash zamonaviy umumiy o‘rta ta’limning muhim vazifalaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sanaqulov X., Yakubova I. Texnologiya fanini o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2021. – 373 b. ISBN: 978-9943-7079-2-4.



2. Qurbonmurotov E.A. Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2026. – T. 4. – № 6. – B. 146–150. DOI: 10.5281/zenodo.20569893.
3. Sotimboyeva N., Soliboyeva F. Texnologiya fanida kompetensiyaviy yondashuv asosida hard va soft skillsni rivojlantirish // Sun'iy intellektni pedagogik ta'limga tatbiq etishning ustuvor yo'nalishlari: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2026. – B. 826–830. DOI: 10.5281/zenodo.20215817.
4. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni. – Toshkent, 2020.
5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? – Paris: UNESCO, 2023.
6. UNESCO. ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. – Paris: UNESCO, 2018.
7. OECD. OECD Learning Compass 2030: A Series of Concept Notes. – Paris: OECD Publishing, 2019.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
9. Kilpatrick W.H. The Project Method // Teachers College Record. – 1918. – Vol. 19. – No. 4. – P. 319–335.
10. Kolb D.A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1984.





**NUTQIY KOMPETENSIYALARNI
RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV
TOPSHIRIQLAR TIZIMI**

**COMMUNICATIVE TASKS SYSTEM FOR
DEVELOPING STUDENTS' SPEECH
COMPETENCES**

**СИСТЕМА КОММУНИКАТИВНЫХ ЗАДАНИЙ В
РАЗВИТИИ РЕЧЕВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ
УЧАЩИХСЯ**

FAN TARMOG'I
13.00.00 – Pedagogika

QABUL QILINDI
14.08.2026

CHOP ETILDI
17.08.2026

Nursulton Shayxislamov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Turizm fakulteti o'quv ishlari bo'yicha dekan
o'rinbosari, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda kommunikativ topshiriqlar tizimining lingvodidaktik va metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiya o'quvchining til birliklarini bilishi bilangina cheklanmay, ularni turli kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo'llashi, axborotni anglash va qayta ishlashi, fikrini og'zaki hamda yozma shaklda izchil ifodalashi, suhbatdosh bilan samarali muloqotga kirishishi va o'z nutqiy faoliyatini tahlil qila olishini ta'minlovchi integrativ qobiliyat sifatida talqin etiladi. Kommunikativ topshiriqning metodik mohiyati ochib berilib, uning an'anaviy mashqlardan farqli jihatlari aniqlanadi. Shuningdek, kommunikativ topshiriqlarni tizimlashtirishning asosiy mezonlari, ularning nutqiy faoliyat turlari bilan aloqadorligi hamda 8-11-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada kommunikativ topshiriqlar tizimini kommunikativ vaziyatni anglash, nutqiy faoliyatni rejalashtirish, nutqiy mahsulot yaratish, uni tahrirlash va refleksiv baholash bosqichlari asosida tashkil etish taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, kommunikativ topshiriq, ona tili ta'limi, lingvodidaktika, nutqiy faoliyat, kommunikativ vaziyat, og'zaki nutq, yozma nutq, dialogik nutq, monologik nutq, matn yaratish, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya, metodik tizim.

ABSTRACT

This article examines the linguodidactic and methodological potential of a system of communicative tasks as an important means of developing students' speech competences in native language education. Speech competence is interpreted not

merely as knowledge of linguistic units, but as an integrative ability that enables students to use language appropriately in various communicative situations, comprehend and process information, express their ideas coherently in oral and written forms, engage effectively in interaction with interlocutors, and analyze and evaluate their own speech activity. The article clarifies the methodological essence of the communicative task and identifies its distinctive features in comparison with traditional exercises. The main criteria for systematizing communicative tasks, their relationship with different types of speech activity, and their didactic potential for developing the speech competences of students in grades 8-11 are also discussed. The article proposes organizing a system of communicative tasks based on the stages of understanding the communicative situation, planning speech activity, producing a speech product, revising it, and reflective evaluation.

Keywords: speech competence, communicative competence, communicative task, native language education, linguodidactics, speech activity, communicative situation, oral speech, written speech, dialogic speech, monologic speech, text production, competency-based approach, reflection, methodological system.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются лингводидактические и методические возможности системы коммуникативных заданий как важного средства развития речевых компетенций учащихся в процессе обучения родному языку. Речевая компетенция рассматривается не только как знание языковых единиц, но и как интегративная способность учащегося использовать языковые средства в соответствии с различными коммуникативными ситуациями, понимать и перерабатывать информацию, последовательно выражать собственные мысли в устной и письменной формах, эффективно взаимодействовать с собеседником, а также анализировать и оценивать собственную речевую деятельность. Раскрывается методическая сущность коммуникативного задания и определяются его отличительные признаки по сравнению с традиционными упражнениями. Рассматриваются основные критерии систематизации коммуникативных заданий, их взаимосвязь с различными видами речевой деятельности и дидактические возможности в развитии речевых компетенций учащихся 8-11-х классов. Предлагается организовать систему коммуникативных заданий на основе последовательных этапов осмысления коммуникативной ситуации, планирования речевой деятельности, создания речевого продукта, его редактирования и рефлексивной оценки.

Ключевые слова: речевая компетенция, коммуникативная компетенция, коммуникативное задание, обучение родному языку, лингводидактика, речевая деятельность, коммуникативная ситуация, устная речь, письменная речь,

диалогическая речь, монологическая речь, создание текста, компетентностный подход, рефлексия, методическая система.

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida shaxsning faqat muayyan fan doirasidagi bilimlarni egallashi emas, balki o'zlashtirilgan bilimlarni turli faoliyat va hayotiy vaziyatlarda mustaqil qo'llay olishi ustuvor ta'limiy natijalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ona tili ta'limining mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish jarayonida o'quvchining kommunikativ faoliyatini rivojlantirish masalasi alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki tilning ta'limiy qiymati uning grammatik qurilishini bilish bilangina emas, balki mazkur bilimlardan fikrni shakllantirish, ifodalash, boshqalarning fikrini anglash va muloqot jarayonida samarali foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Ona tili darslarida o'quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantirish masalasi an'anaviy metodikada ham muhim o'rin egallagan. Biroq zamonaviy ta'lim sharoitida mazkur masalaga nisbatan yondashuvning mazmuni kengayib bormoqda. O'quvchidan tayyor matnni qayta hikoya qilish yoki berilgan grammatik qolip asosida gap tuzish bilan bir qatorda, kommunikativ vaziyatni mustaqil tahlil qilish, nutqiy maqsadni belgilash, axborotni tanlash va qayta ishlash, fikrni dalillash, turli janr va uslublarda matn yaratish hamda o'z nutqini tahrir qilish talab etilmoqda.

Mazkur talablar nutqiy kompetensiya tushunchasining mohiyatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Nutqiy kompetensiya shaxsning muayyan kommunikativ vaziyatda til vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatini ifodalaydi. U lingvistik bilim, nutqiy ko'nikma, kommunikativ strategiya, pragmatik moslashuv va refleksiv nazoratning o'zaro integratsiyasiga asoslanadi. Shu ma'noda nutqiy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish jarayoni o'quvchining real nutqiy faoliyatini faollashtiruvchi metodik vositalarni talab qiladi.

Kommunikativ topshiriqlar ana shunday vositalardan biridir. Biroq kommunikativ topshiriqni oddiy o'quv mashqining bir ko'rinishi sifatida baholash uning metodik mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Kommunikativ topshiriq o'quvchini muayyan kommunikativ vaziyatga olib kiradi, uning oldiga aniq nutqiy maqsad qo'yadi va shu maqsadga erishish uchun til vositalarini mustaqil tanlash hamda ulardan foydalanishni talab etadi. Natijada til o'rganish faoliyati abstrakt grammatik operatsiyadan funksional nutqiy faoliyatga aylanadi.

Kommunikativ kompetensiya haqidagi ilmiy qarashlarning shakllanishida D.Haymesning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Olim kommunikativ faoliyatni grammatik to'g'rilik bilan cheklamasdan, nutqning ijtimoiy va vaziyatga xos qo'llanishini ham kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rsatadi. M.Kanale va M.Sveyin tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya

modeli esa grammatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlarning o‘zaro aloqadorligini asoslashga xizmat qilgan. Keyingi tadqiqotlarda mazkur qarashlar diskursiv va pragmatik komponentlar bilan yanada boyitilgan.

Til ta’limida topshiriqqa asoslangan yondashuvni tadqiq qilgan R.Ellis, D.Nunan kabi olimlar ham o‘quvchini mazmunli va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatga jalb etuvchi topshiriqlarning kommunikativ imkoniyatlariga e’tibor qaratadilar. Mazkur ilmiy qarashlarni ona tili ta’limining milliy metodik tizimi bilan uyg‘unlashtirish esa o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning yangi metodik imkoniyatlarini belgilaydi.

Shundan kelib chiqib, maqolaning asosiy maqsadi ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ topshiriqlar tizimining nazariy-metodik asoslarini aniqlash va uning strukturaviy modelini taklif etishdan iborat.

ASOSIY QISM

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy ona tili ta’limining ustuvor metodik vazifalaridan biri bo‘lib, uning mazmuni o‘quvchining til tizimiga oid bilimlarni egallashi bilangina chegaralanmaydi. Nutqiy kompetensiya shaxsning kommunikativ vaziyatni anglash, nutqiy maqsadni belgilash, zarur axborotni tanlash va qayta ishlash, kommunikativ maqsadga muvofiq til vositalarini tanlash, og‘zaki yoki yozma nutq yaratish, suhbatdoshning kommunikativ pozitsiyasini hisobga olish hamda o‘z nutqiy faoliyatini nazorat va tahrir qila olish imkoniyatlarini mujassamlashtiruvchi murakkab funksional hodisadir. Shu sababli uni shakllantirish jarayonini faqat grammatik, leksik yoki fonetik bilimlarni mustahkamlashga qaratilgan mashqlar bilan cheklash metodik jihatdan yetarli emas. O‘quvchining til haqidagi bilimlari real yoki modellashtirilgan kommunikativ faoliyatga jalb etilgan taqdirdagina ular funksional kompetensiyaga aylanishi mumkin. Mazkur nuqtayi nazardan kommunikativ topshiriqlar nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim metodik mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy-metodik asoslari D.Haymes tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar bilan chambarchas bog‘liq. Olim kommunikativ kompetensiyani grammatik jihatdan to‘g‘ri gap tuzish qobiliyati bilan cheklamasdan, muayyan ijtimoiy-kommunikativ vaziyatda qanday nutqiy birlikdan, qachon, kim bilan va qanday maqsadda foydalanish mumkinligini bilish bilan bog‘laydi. M.Kanale va M.Svayin esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy xususiyatlarini tizimlashtirib, grammatik, sotsiolingvistik va strategik komponentlarning o‘zaro munosabatini asoslaydi. Keyingi lingvodidaktik tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyaning diskursiv va pragmatik jihatlari ham alohida komponent sifatida qarala boshladi. Ushbu nazariy yondashuvlar ona tili

ta'limi uchun muhim metodik xulosaga olib keladi: o'quvchining til birliklarini bilishi hali uning nutqiy jihatdan kompetentligini anglatmaydi; mazkur bilimlarning kommunikativ vaziyatda maqsadga muvofiq qo'llanishi kompetensiyaning amaliy ko'rsatkichi hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan kommunikativ topshiriq tushunchasini an'anaviy mashq tushunchasidan farqlash zarur. Mashq, odatda, muayyan til hodisasini o'zlashtirish, mustahkamlash yoki nazorat qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, kommunikativ topshiriq o'quvchining oldiga ma'lum kommunikativ vazifani qo'yadi va ushbu vazifani bajarish jarayonida til vositalaridan mustaqil foydalanishni talab etadi. Masalan, "Gaplardagi fe'llarni toping", "Berilgan otlarga mos sifatlarni aniqlang", "Gaplarni qo'shma gapga aylantiring" kabi topshiriqlar ma'lum lingvistik operatsiyani bajarishga yo'naltiriladi. Bunday topshiriqlar til materialini o'zlashtirish uchun zarur bo'lsa-da, ular o'z-o'zidan kommunikativ kompetensiyaning yuqori darajada shakllanishini ta'minlamaydi. "Maktabingizda o'tkaziladigan tadbir haqida tengdoshingizga ma'lumot bering va uni tadbirda ishtirok etishga ishonitiring" yoki "Berilgan ikki nuqtayi nazardan birini tanlab, o'z pozitsiyangizni dalillar asosida himoya qiling" kabi topshiriqlarda esa o'quvchi kommunikativ maqsad, adresat, vaziyat va kutilayotgan natijani hisobga olgan holda nutqiy faoliyatni mustaqil tashkil etadi. Demak, kommunikativ topshiriqning asosiy belgisi uning shakliy jihatida emas, balki o'quvchini kommunikativ maqsadni hal qilishga yo'naltiruvchi funksional tabiatida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ topshiriqning metodik strukturasini kommunikativ vaziyat, kommunikativ maqsad, axborot, nutqiy strategiya, nutqiy mahsulot, kommunikativ natija va refleksiya kabi komponentlarning o'zaro aloqadorligi asosida izohlash mumkin. Kommunikativ vaziyat o'quvchiga nutqiy faoliyatning shart-sharoitlarini belgilab bersa, kommunikativ maqsad ushbu faoliyatning yo'nalishini aniqlaydi. Axborot komponenti zarur mazmuniy materialni tanlash va qayta ishlashni nazarda tutadi. Nutqiy strategiya esa maqsadga erishish uchun qanday mazmuniy, leksik, grammatik va uslubiy vositalardan foydalanish zarurligini belgilaydi. Natijada o'quvchi muayyan nutqiy mahsulot yaratadi. Ushbu mahsulotning kommunikativ samaradorligi esa uning maqsadga muvofiqligi, mazmuniy yaxlitligi, mantiqiy izchilligi, lingvistik me'yorlarga mosligi va adresatga ta'sirchanligi bilan belgilanadi. Yakuniy refleksiya bosqichida o'quvchi o'z nutqiy faoliyatini tahlil qiladi, mavjud kamchiliklarni aniqlaydi va nutqiy mahsulotni takomillashtiradi. Shunday qilib, kommunikativ topshiriqning metodik sikli "anglash – rejalashtirish – yaratish – tahrirlash – refleksiya" ketma-ketligida namoyon bo'ladi.

Kommunikativ topshiriqlarni mazkur tarkibiy mexanizm asosida tizimlashtirish ularni oddiy topshiriqlar majmuasidan metodik tizim darajasiga olib chiqadi. Tizimlilik, avvalo, topshiriqlarning yagona didaktik maqsadga bo'ysundirilishi,

ularning o‘zaro mazmuniy va faoliyat jihatidan bog‘lanishi, murakkablik darajasining izchil oshib borishi hamda avvalgi topshiriq natijasining keyingi faoliyat uchun tayanch vazifasini bajarishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan kommunikativ topshiriqlarni nutqiy faoliyatning mazmuni va kommunikativ maqsadiga ko‘ra axborotni anglash, axborot almashish, muammoli vaziyatni hal qilish, produktiv nutq yaratish va refleksiv baholashga yo‘naltirilgan funksional guruhlariga ajratish mumkin. Bunday tasnif o‘quvchining nutqiy faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirish va reproduktiv faoliyatdan produktiv hamda refleksiv faoliyatga olib chiqish imkonini beradi.

8-11-sinf o‘quvchilari uchun kommunikativ topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda o‘quvchilarning yosh, intellektual va kommunikativ rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish alohida ahamiyat kasb etadi. Yuqori sinflarga kelib o‘quvchining abstrakt tafakkuri, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyati, mustaqil xulosa chiqarish hamda o‘z pozitsiyasini asoslash imkoniyati kengayadi. Shu sababli mazkur bosqichda kommunikativ topshiriqlarning mazmuni oddiy qayta hikoyalash yoki tayyor axborotni takrorlashdan yuqori darajadagi kognitiv va kommunikativ faoliyatga tomon rivojlantirilishi lozim. Bunda topshiriqlar murakkabligi “aniqlash – tushuntirish – taqqoslash – tahlil qilish – baholash – dalillash – yaratish – refleksiya” tarzida bosqichma-bosqich oshirilishi mumkin. Masalan, 8-sinfda o‘quvchidan matnning asosiy mazmunini aniqlash va uni o‘z so‘zlari bilan ifodalash talab qilinsa, keyingi bosqichlarda ikki xil pozitsiyani qiyoslash, muayyan masala bo‘yicha o‘z fikrini asoslash, qarama-qarshi nuqtayi nazarga munosabat bildirish va nihoyat mustaqil argumentativ matn yaratish kabi faoliyatlarga o‘tiladi. Bunday progression nutqiy kompetensiyaning nafaqat hajm jihatdan, balki sifat jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi.

Kommunikativ topshiriqlar tizimida nutq faoliyatining tinglash, o‘qish, gapirish va yozish turlarini integratsiyalash ham muhim metodik shartlardan biridir. Real kommunikativ jarayonda mazkur faoliyat turlari bir-biridan mutlaq ajralgan holda emas, balki o‘zaro aloqadorlikda kechadi. O‘quvchi muayyan mavzuda fikr bildirishdan oldin axborotni tinglashi yoki o‘qishi, uni tahlil qilishi, muhim jihatlarni ajratishi, o‘z pozitsiyasini shakllantirishi, suhbat jarayonida fikr almashishi va yakunda yozma xulosa yaratishi mumkin. Shu sababli ona tili darslarida kommunikativ topshiriqlarni alohida nutq faoliyati turlariga ajratib emas, balki ularning funksional integratsiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Masalan, “Yoshlar va ijtimoiy tarmoqlar” mavzusida o‘quvchilarga avval audio yoki videomatnni tinglash, keyin mavzu bo‘yicha ikki xil pozitsiyani ifodalovchi matnlarni o‘qish, ularning dalillarini qiyoslash, juftlik yoki guruhda muhokama qilish, munozarada o‘z pozitsiyasini himoya qilish va yakunda argumentativ esse yaratish topshirig‘i berilishi mumkin. Bunda tinglash, o‘qish, gapirish va yozish



yagona kommunikativ maqsadga xizmat qiluvchi integrativ nutqiy faoliyatga aylanadi.

Kommunikativ topshiriqlarning metodik imkoniyatlari, ayniqsa, grammatik va leksik materialni funksional nutqiy faoliyatga bog'lash jarayonida yaqqol namoyon bo'ladi. Ona tili ta'limida til hodisalarini kommunikativ kontekstdan ajratib o'rgatish o'quvchida nazariy bilimni shakllantirishi mumkin, biroq mazkur bilimning real nutqiy vaziyatda qo'llanishi uchun alohida metodik mexanizm zarur. Kommunikativ topshiriq ana shu mexanizmni ta'minlaydi. Masalan, shart mayli shakllarini o'rgatishda faqat fe'l shakllarini grammatik jihatdan o'zgartirish bilan chegaralanmasdan, "Agar sizga maktab ta'lim tizimida bitta o'zgarish kiritish imkoniyati berilsa, nimani o'zgartirgan bo'lardingiz?" kabi topshiriq berilishi o'quvchini mazkur grammatik shakllardan real kommunikativ maqsadni ifodalash vositasi sifatida foydalanishga undaydi. Xuddi shuningdek, sabab, maqsad, qarama-qarshilik va shart munosabatlarini ifodalovchi bog'lovchi vositalarni o'rgatishda ularni shunchaki aniqlash emas, balki muayyan mavzu bo'yicha mantiqan yaxlit matn yaratishda qo'llash talab qilinishi mumkin. Bunday yondashuvda grammatik birlik o'zlashtirishning yakuniy maqsadi emas, balki kommunikativ mazmunni yuzaga chiqaruvchi vositaga aylanadi.

Yuqori sinflarda kommunikativ topshiriqlar tizimining muhim tarkibiy yo'nalishlaridan biri argumentativ nutqni rivojlantirishdan iborat. Chunki 10-11-sinf o'quvchisi ijtimoiy, ilmiy-ma'rifiy va kasbiy xarakterdagi turli masalalar bo'yicha mustaqil fikr bildirish, o'z qarashlarini dalillash va muqobil pozitsiyaga munosabat bildirish kompetensiyasiga ega bo'lishi zarur. Argumentativ topshiriqlar o'quvchini faqat "mening fikrim" darajasidagi subyektiv bayondan asoslangan kommunikativ pozitsiyaga olib chiqadi. Masalan, "Sun'iy intellekt ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradimi?" mavzusida tashkil etilgan munozara o'quvchidan muammoni anglash, pozitsiya tanlash, dalillarni saralash, qarama-qarshi fikrni tushunish, unga munosabat bildirish va yakuniy xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababli bunday topshiriqlar nutqiy kompetensiya bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, argumentatsiya va kommunikativ strategiya ko'nikmalarining rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Kommunikativ topshiriqlar tizimining metodik samaradorligini aniqlashda baholash mezonlari ham alohida ilmiy ahamiyatga ega. Nutqiy faoliyat natijasini faqat grammatik xatolar soni orqali baholash kommunikativ kompetensiyaning ko'p komponentli tabiatini to'liq aks ettirmaydi. O'quvchi grammatik jihatdan to'g'ri, biroq kommunikativ maqsadga mos kelmaydigan nutq yaratishi mumkin. Aksincha, ayrim lingvistik kamchiliklarga ega bo'lsa-da, o'z fikrini aniq, mantiqiy va kommunikativ jihatdan samarali ifodalashi mumkin. Shu sababli kommunikativ topshiriqlar natijasini baholashda kommunikativ maqsadga erishish, mazmuniy

yaxlitlik, mantiqiy izchillik, lingvistik me'yorilik, pragmatik adekvatlik, nutqiy ravonlik, argumentativ asoslanganlik va refleksivlik kabi mezonlarning integratsiyalashgan tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunday mezonlar o'quvchining nutqiy faoliyatini faqat "to'g'ri-noto'g'ri" dixotomiyasi asosida emas, balki uning kommunikativ samaradorligi va funksional qiymati nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi.

Shunday qilib, kommunikativ topshiriqlar tizimining metodik samaradorligi ularning soni yoki tashqi shakllarining xilma-xilligi bilan emas, balki nutqiy kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini izchil rivojlantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Tizim tarkibidagi har bir topshiriq umumiy kommunikativ maqsadga bo'ysunishi, o'quvchining oldingi faoliyatida shakllangan bilim va ko'nikmalarni keyingi faoliyatga ko'chirish imkonini berishi, nutqiy faoliyatning murakkablik darajasini oshirishi va yakunda o'quvchini refleksiv baholashga olib kelishi lozim. Ana shundagina kommunikativ topshiriqlar oddiy metodik usullar yig'indisi emas, balki nutqiy kompetensiyaning rivojlantirishining yaxlit metodik tizimiga aylanadi. Mazkur tizimning markazida esa o'quvchining tayyor bilimni qayta ishlab berishi emas, balki kommunikativ muammoni mustaqil hal qilishi va mazmunli nutqiy mahsulot yaratishi turadi.

XULOSA

Ona tili ta'limida nutqiy kompetensiyaning rivojlantirish o'quvchining lingvistik bilimlarini amaliy kommunikativ faoliyatga transformatsiya qilishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan kommunikativ topshiriqlar tizimi o'quvchining kommunikativ vaziyatni anglash, nutqiy maqsadni belgilash, axborotni qayta ishlash, til vositalarini tanlash, nutqiy mahsulot yaratish, uni tahrirlash va o'z faoliyatini refleksiv baholash jarayonlarini yagona metodik tizimga birlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijasida kommunikativ topshiriqlarning mohiyati oddiy mashqdan farqli ravishda kommunikativ maqsad va vaziyatga asoslangan, o'quvchidan mustaqil nutqiy qaror qabul qilishni talab etuvchi metodik birlik sifatida belgilandi. Uning "kommunikativ vaziyat – maqsad – axborot – nutqiy strategiya – nutqiy mahsulot – kommunikativ natija – refleksiya" modeli nutqiy kompetensiyaning tarkibiy komponentlarini faoliyatga jalb etish imkonini beradi.

8-11-sinflarda kommunikativ topshiriqlar tizimini qo'llashda reproduktiv faoliyatdan produktiv, argumentativ va refleksiv faoliyatga izchil o'tish, tinglash, o'qish, gapirish va yozish jarayonlarini integratsiyalash, grammatik va leksik materialni real kommunikativ vazifalar bilan bog'lash hamda nutqiy faoliyatni kompleks mezonlar asosida baholash muhim metodik shartlar sifatida belgilanadi. Natijada o'quvchining ona tili haqidagi bilimlari faqat nazariy mazmun sifatida emas, balki kommunikativ faoliyatni amalga oshirish vositasi sifatida funkcionallashadi.




Shu asosda kommunikativ topshiriqlar tizimini ona tili darslarining mazmuniy, jarayoniy va baholash komponentlari bilan integratsiyalash 8-11-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning ilmiy-metodik istiqbolli yo'nalishi sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hymes D.H. On Communicative Competence. In: Pride J.B., Holmes J. (Eds.). Sociolinguistics: Selected Readings. Harmondsworth: Penguin Books, 1972. P. 269-293.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics. 1980. Vol. 1, No. 1. P. 1-47. DOI: 10.1093/applin/I.1.1.
3. Canale M. From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy. In: Richards J.C., Schmidt R.W. (Eds.). Language and Communication. London: Longman, 1983. P. 2-27.
4. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford: Oxford University Press, 1990. 408 p. ISBN 9780194370028.
5. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. Reading, MA: Addison-Wesley, 1983. 332 p. ISBN 0-201-06503-7.
6. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press, 2003.
7. Nunan D. Task-Based Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press, 2004. ISBN 9780521549479.
8. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
9. Brown H.D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 3rd ed. White Plains, NY: Pearson Education, 2007. 569 p. ISBN 9780136127116.
10. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 380 b. ISBN 978-9943-10-694-9.
11. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010. 184 b.
12. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). Buxoro: Durdona, 2021. 421 b. ISBN 978-9944-6985-3-6.
13. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B., Hamroyev A. Ona tili didaktikasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2003.
14. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press, 1981.



15. Breen M.P., Candlin C.N. The Essentials of a Communicative Curriculum in Language Teaching. Applied Linguistics. 1980. Vol. 1, No. 2. P. 89–112.
16. Long M.H. A Role for Instruction in Second Language Acquisition. In: Hyltenstam K., Pienemann M. (Eds.). Modelling and Assessing Second Language Acquisition. Clevedon: Multilingual Matters, 1985. P. 77–99.
17. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. Harlow: Longman, 1996.
18. Skehan P. A Cognitive Approach to Language Learning. Oxford: Oxford University Press, 1998.





**RUS VA O‘ZBEK TILLARIDA KELISHIK
KATEGORIYALARINING QIYOSIY TAHLILI**

**A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE CASE
CATEGORIES IN RUSSIAN AND UZBEK**

**СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ КАТЕГОРИИ
ПАДЕЖА В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

FAN TARMOG‘I
10.00.00 – Filologiya

QABUL QILINDI
15.08.2026

CHOP ETILDI
18.08.2026

Barno Tajimovna Badalova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti Fakultetlararo rus
tili kafedrası mudiri

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada rus va o‘zbek tillaridagi kelishik kategoriyasi qiyosiy-tipologik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi ikki tildagi kelishik shakllarining morfologik qurilishi, grammatik-semantik mazmuni, sintaktik vazifalari hamda funksional imkoniyatlaridagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlashdan iborat. Rus tilining flektiv, o‘zbek tilining agglutativ xususiyati kelishik kategoriyasining shakllanish va qo‘llanish mexanizmlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi asoslangan. Rus tilidagi *именительный, родительный, дательный, винительный, творительный* va *предложный* падеж shakllari o‘zbek tilidagi bosh, qaratqich, jo‘nalish, tushum, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari bilan funksional jihatdan qiyoslangan. Tahlil jarayonida formal jihatdan bir-biriga muvofiq ko‘rinadigan kelishik shakllari semantik va sintaktik jihatdan har doim ham to‘liq ekvivalent bo‘lmashligi aniqlangan. Ayniqsa, rus tilida kelishik ma’nolarining ko‘makchilar bilan birikkan holda ifodalanishi, o‘zbek tilida esa asosan affiksial vositalar orqali shakllanishi ikki til o‘rtasidagi muhim strukturaviy tafovut sifatida baholangan. Tadqiqot natijalari rus va o‘zbek tillarini qiyosiy o‘rganish, tarjima jarayonida grammatik ekvivalentlikni aniqlash hamda rus tilini o‘zbek auditoriyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: rus tili, o‘zbek tili, kelishik kategoriyasi, qiyosiy tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, morfologik kategoriya, flektivlik, agglutativlik, grammatik shakl, grammatik ma’no, sintaktik funksiya, semantik munosabat, ko‘makchi, affiks, grammatik ekvivalentlik.

ABSTRACT

This article presents a comparative-typological analysis of the case categories in the Russian and Uzbek languages. The study aims to identify the common and distinctive features of case forms in the two languages in terms of their morphological structure, grammatical-semantic content, syntactic functions, and

functional potential. Particular attention is paid to the influence of the inflectional nature of Russian and the agglutinative structure of Uzbek on the formation and use of case categories. The Russian cases–nominative, genitive, dative, accusative, instrumental, and prepositional–are compared functionally with the nominative, genitive, accusative, dative, locative, and ablative cases in Uzbek. The analysis demonstrates that case forms which appear formally equivalent are not always completely identical in their semantic and syntactic functions. In particular, the use of cases in combination with prepositions in Russian, as opposed to the predominantly affixal expression of case relations in Uzbek, is identified as one of the major structural differences between the two languages. The study establishes that functional-semantic correspondence rather than formal equivalence should serve as the principal criterion in comparing the case systems of Russian and Uzbek. The findings are of theoretical and practical significance for comparative linguistics, translation studies, and the methodology of teaching Russian to Uzbek-speaking learners.

Keywords: Russian language, Uzbek language, case category, comparative analysis, comparative-typological analysis, morphology, inflection, agglutination, grammatical form, grammatical meaning, syntactic function, semantic relation, preposition, affix, grammatical equivalence.

АННОТАЦИЯ

В статье представлен сопоставительно-типологический анализ категории падежа в русском и узбекском языках. Цель исследования заключается в выявлении общих и отличительных особенностей падежных форм двух языков с точки зрения их морфологической структуры, грамматико-семантического содержания, синтаксических функций и функциональных возможностей. Особое внимание уделяется влиянию флективного характера русского языка и агглютинативной структуры узбекского языка на формирование и функционирование падежной категории. Русские именительный, родительный, дательный, винительный, творительный и предложный падежи сопоставляются с узбекскими бош, қараткич, тушум, жўналиш, ўрин-пайт и чиқиш келишиклари в функциональном аспекте. В результате анализа установлено, что падежные формы, формально воспринимаемые как эквивалентные, не всегда полностью совпадают по своим семантическим и синтаксическим функциям. В частности, использование падежных форм в сочетании с предлогами в русском языке, в отличие от преимущественно аффиксального выражения падежных отношений в узбекском языке, рассматривается как одно из основных структурных различий между двумя языками. Обосновано, что при сопоставлении падежных систем русского и узбекского языков основным

критерием должна выступать не формальная эквивалентность, а функционально-семантическое соответствие. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для сопоставительного языкознания, теории перевода и методики преподавания русского языка узбекоязычным учащимся.

Ключевые слова: русский язык, узбекский язык, категория падежа, сопоставительный анализ, сопоставительно-типологический анализ, морфология, флексия, агглютинация, грамматическая форма, грамматическое значение, синтаксическая функция, семантическое отношение, предлог, аффикс, грамматическая эквивалентность.

KIRISH

Til grammatik qurilishining muhim tarkibiy qismlaridan biri grammatik kategoriyalar tizimi bo'lib, ularning shakllanishi va funksional qo'llanishi har bir tilning strukturaviy tabiatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, kelishik kategoriyasi otlarning gap tarkibidagi boshqa birliklar bilan grammatik va semantik munosabatlarini shakllantirishi bilan morfologiya hamda sintaksis chegarasidagi muhim grammatik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Kelishik shakllarining qiyosiy o'rganilishi nafaqat alohida tillarning grammatik tizimini chuqurroq anglash, balki genealogik jihatdan qarindosh bo'lmagan tillar o'rtasidagi tipologik umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

Rus va o'zbek tillaridagi kelishik kategoriyasini qiyosiy o'rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki mazkur tillar genealogik jihatdan turli oilalariga mansub bo'lib, grammatik qurilishining tipologik xususiyatlari ham bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Rus tili flektiv tillarga xos bo'lgan grammatik shakl o'zgarishlari bilan ajralib tursa, o'zbek tili agglutinatив grammatik qurilishga ega. Natijada bir xil yoki yaqin grammatik-semantik munosabatlarning ikki tilda turli morfologik va sintaktik vositalar orqali ifodalanishi kuzatiladi.

Rus va o'zbek tillarining qiyosiy grammatikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar orasida A.A.Azizovning *“Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков: Морфология”* asari alohida o'rin tutadi. Mazkur tadqiqotda ikki til morfologik tizimining qiyosiy xususiyatlari yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlarda ham rus va o'zbek tillaridagi kelishik tizimining morfologik, qiyosiy-tipologik va funksional-semantik xususiyatlarini aniqlashga e'tibor qaratilmoqda.

Kelishik kategoriyasini qiyoslashda faqat kelishik shakllarining soni yoki ularning tashqi ko'rinishini taqqoslash yetarli emas. Zero, bir tildagi muayyan kelishik shakliga ikkinchi tilda bir necha grammatik vosita muvofiq kelishi yoki, aksincha, bir tildagi grammatik shakl boshqa tilda turli shakllar orqali ifodalanishi mumkin. Shu sababli qiyosiy tahlilda morfologik shakl, grammatik ma'no, sintaktik

vazifa va semantik munosabatning o‘zaro aloqadorligi asosiy metodologik mezon sifatida belgilanishi lozim.

Mazkur maqolaning maqsadi rus va o‘zbek tillaridagi kelishik kategoriyasining strukturaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilish, kelishik shakllarining morfologik ifodalanishi, semantik imkoniyatlari va sintaktik vazifalaridagi umumiy hamda farqli jihatlarni aniqlashdan iborat.

ASOSIY QISM

Kelishik kategoriyasi ot va otlashgan birliklarning gapdagi boshqa so‘zlar bilan grammatik munosabatini ifodalovchi morfologik kategoriya sifatida shakllanadi. Biroq uning funksional tabiati morfologik shakl doirasidagina chegaralanmaydi. Kelishik shakli orqali obyektivlik, tegishlilik, yo‘nalish, makon, vaqt, manba, vosita kabi turli semantik munosabatlar ifodalanishi mumkin. Shuning uchun kelishik kategoriyasini to‘laqonli tadqiq etish uchun uning morfologik shakli bilan bir qatorda, ushbu shaklning sintaktik pozitsiyasi va kontekstual-semantik vazifasini ham hisobga olish zarur.

O‘zbek tilida kelishik kategoriyasi an‘anaviy grammatik tavsifga ko‘ra olti shakldan tashkil topadi: bosh, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishiklari. Ularning grammatik ko‘rsatkichlari mos ravishda nol shakl, *-ning*, *-ni*, *-ga/-ka/-qa*, *-da*, *-dan* ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi kelishik shakllarining asosiy tipologik xususiyati ularning affiksial vosita orqali ifodalanishidir. Masalan, *kitobning*, *kitobni*, *kitobga*, *kitobda*, *kitobdan* shakllarida kelishik ma‘nosi negizga qo‘shilgan maxsus affikslar yordamida yuzaga keladi.

O‘zbek tilining agglutinatив xususiyati kelishik kategoriyasining paradigmatic tuzilishida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. So‘z shaklining tarkibida grammatik ma‘nolar muayyan izchillik asosida joylashadi: *kitoblarimizni* shaklida negizdan keyin ko‘plik, egalik va kelishik ma‘nolarini ifodalovchi affikslar ketma-ket qo‘llangan. Bunda har bir affiks muayyan grammatik funksiyani bajaradi. Bu xususiyat o‘zbek tilidagi grammatik shakllarning strukturaviy shaffofligini ta‘minlaydi.

Rus tilida esa kelishik kategoriyasi olti shakl – *именительный, родительный, дательный, винительный, творительный* va *предложный* *надежд*dan tashkil topadi. Biroq rus tilidagi kelishik paradigmasining shakllanishi o‘zbek tilidan farqli ravishda flektiv xarakterga ega. Bunda kelishik, son, jins kabi grammatik kategoriyalar ko‘pincha birgalikda shakliy o‘zgarishga sabab bo‘ladi. Masalan, *стол – стола – столу – стол – столом – о столе* qatorida ot negizining shakliy o‘zgarishi orqali turli kelishik munosabatlari ifodalanadi.

Rus tilidagi flektivlikning muhim xususiyati shundan iboratki, bitta grammatik shakl tarkibida bir necha grammatik ma‘no mujassamlashishi mumkin. O‘zbek tilidagi agglutinatив modelda esa grammatik ma‘nolar, odatda, alohida affikslar orqali

ketma-ket ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan rus tilidagi *студенту* va o'zbek tilidagi *talabaga* shakllari bir xil funksional munosabatni ifodalasa-da, ularning morfologik tashkil topish mexanizmi bir-biridan farq qiladi.

Ikki til kelishik tizimining qiyosiy tahlilida bosh kelishik va именительный падеж o'rtasidagi funksional muvofiqlik nisbatan yuqori darajada namoyon bo'ladi. Har ikki tilda ham bosh kelishik otning boshlang'ich shakli bo'lib, ko'pincha gapning grammatik egasini ifodalash vazifasini bajaradi. *Talaba kitob o'qidi* va *Студент читает книгу* gaplarida *talaba* hamda *студент* birliklari predikativ munosabatning subyekti sifatida bosh kelishik shaklida kelgan. Biroq bosh kelishikning funksional imkoniyatlari faqat ega vazifasi bilan cheklanmaydi. U predikativ ot, nominativ konstruksiya va ayrim boshqa sintaktik tuzilmalarda ham qatnashishi mumkin.

Qaratqich kelishigi va родительный падеж o'rtasida tegishlilik, qarashlilik va munosabat kabi umumiy semantik belgilar mavjud. O'zbek tilida *-ning* affiksi orqali shakllanuvchi qaratqich kelishigi ko'pincha egalik shakli bilan birgalikda qo'llanadi: *talabaning kitobi, universitetning binosi*. Rus tilida esa tegishlilik munosabati *студента, университета* kabi родительный падеж shakllari orqali ifodalanadi. Bu yerda muhim strukturaviy farq kuzatiladi: o'zbek tilida *-ning* shakli ko'pincha aniqlanmishdagi egalik affiksi bilan korrelyatsiyaga kirishadi, rus tilida esa tegishlilik munosabati ko'pincha bitta kelishik shaklining o'zi orqali yuzaga keladi.

Biroq родительный падеж va qaratqich kelishigini to'liq grammatik ekvivalent sifatida baholash metodologik jihatdan to'g'ri emas. Rus tilidagi родительный падежning semantik maydoni keng bo'lib, u tegishlilikdan tashqari miqdor, inkor, manba, qism-butun munosabati va boshqa ma'nolarni ham ifodalashi mumkin. O'zbek tilidagi qaratqich kelishigining asosiy funksional yadrosi esa tegishlilik va qarashlilik munosabatlari bilan bog'liq. Shunday qilib, ikki shakl o'rtasida funksional kesishuv mavjud bo'lsa-da, ularning semantik maydoni to'liq bir xil emas.

Tushum kelishigi va винительный падеж o'rtasidagi munosabat ham qiyosiy tahlil uchun muhimdir. O'zbek tilida tushum kelishigi *-ni* affiksi orqali ifodalanib, asosan aniq obyektни ko'rsatadi: *kitobni o'qimoq, maqolani yozmoq*. Rus tilida esa obyektlik munosabati винительный падеж orqali ifodalanadi: *читать книгу, писать статью*. Biroq o'zbek tilidagi tushum kelishigi belgili va belgisiz shakllarga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. *Kitob o'qimoq* va *kitobni o'qimoq* konstruksiyalarida obyekt munosabati mavjud bo'lsa-da, ularning aniqlik va umumlashtirish darajasida semantik-pragmatik farq yuzaga keladi. Rus tilida ham obyektning jonli-jonsizligi, jins va son bilan bog'liq morfologik xususiyatlar винительный падеж shaklining tanlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Jo'nalish kelishigi va дательный падеж o'rtasidagi funksional muvofiqlik ham nisbiy xarakterga ega. O'zbek tilida *-ga/-ka/-qa* shakllari yo'nalish, manzil, adresat

va ayrim boshqa munosabatlarni ifodalashi mumkin: *maktabga bormoq, do'stiga aytmoq, uyga qaytmoq*. Rus tilida esa *идти к другу, сказать студенту, подойти к дому* kabi konstruksiyalarda дательный падеж yoki к ko'makchili qurilma ishlatiladi. Demak, o'zbek tilidagi bitta jo'nalish kelishigi rus tilida ayrim hollarda sof kelishik, ayrim hollarda esa ko'makchi + kelishik kombinatsiyasi orqali ifodalanadi.

O'rin-payt kelishigi rus va o'zbek tillarining grammatik tizimlari o'rtasidagi strukturaviy farqni eng aniq ko'rsatuvchi birliklardan biridir. O'zbek tilidagi *-da* affiksi makon va vaqt munosabatlarini ifodalaydi: *maktabda, uyda, darsda, yozda*. Rus tilida esa ushbu ma'nolar ko'pincha *в, на* ko'makchilari bilan *предложный* yoki boshqa kelishik shakllarining birikishi orqali ifodalanadi: *в школе, на уроке, в доме*. Shunday qilib, o'zbek tilida grammatik munosabat bir affiks orqali ifodalansa, rus tilida uning formal ifodalanishi ikki komponentli konstruksiyaga asoslanishi mumkin.

Bu farq qiyosiy-tipologik jihatdan muhim xulosaga olib keladi: grammatik funksiyaning ikki tilda mavjudligi ularning formal ifodasi ham bir xil bo'lishini anglatmaydi. Til tizimlari o'rtasidagi ekvivalentlik ko'pincha formal emas, funksional xarakterga ega bo'ladi. Shu sababli rus tilidagi *в школе* konstruksiyasini o'zbek tilidagi *maktabda* shakli bilan qiyoslashda *в = -da* tarzidagi oddiy mexanik tenglashtirish emas, balki makon munosabatining ikki tilda qanday grammatik modellashtirilishini aniqlash muhimdir.

Chiqish kelishigi va *родительный падеж* o'rtasidagi munosabat ham xuddi shunday murakkabdir. O'zbek tilidagi *-dan* affiksi manba, chiqish nuqtasi, ajralish, sabab va boshqa semantik munosabatlarni ifodalashi mumkin: *uydan chiqmoq, maktabdan kelmoq, do'stdan eshitmoq*. Rus tilida esa mazkur munosabatlar turli konstruksiyalar orqali beriladi: *выйти из дома, прийти из школы, услышать от друга*. Bu misollar o'zbek tilidagi chiqish kelishigi rus tilida yagona morfologik ekvivalentga ega emasligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, rus tilidagi *творительный падеж*ning o'zbek tilida to'g'ridan-to'g'ri bitta kelishik bilan muvofiqlashmasligi alohida e'tibor talab qiladi. Rus tilidagi *писать ручкой, идти с другом, гордиться сыном* kabi konstruksiyalarda *творительный падеж* vosita, birgalik, obyektga munosabat kabi turli ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek tilida esa bu munosabatlar *qalam bilan yozmoq, do'st bilan yurmoq, o'g'li bilan faxrlanmoq* kabi ko'makchili konstruksiyalar yoki boshqa grammatik vositalar orqali beriladi. Demak, rus tilidagi *творительный падеж*ning semantik maydoni o'zbek tilidagi bitta kelishik kategoriyasi bilan to'liq qoplanmaydi.

Rus tilidagi *предложный падеж* ham o'zbek tilidagi o'rin-payt kelishigi bilan to'liq teng emas. *о книге, в школе, на уроке* kabi konstruksiyalarda *предложный падеж* turli ko'makchilar bilan birikib, makon yoki predmet haqida fikr yuritish kabi ma'nolarni ifodalaydi. O'zbek tilida esa *kitob haqida, maktabda, darsda* shakllari

turli grammatik vositalar asosida yuzaga keladi. Bu holat bir grammatik kategoriyaning funksional maydoni boshqa tilda bir nechta grammatik konstruksiya orqali ifodalanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kelishik kategoriyalarini qiyoslashda grammatik shaklning semantik yuklamasi alohida ahamiyatga ega. Muayyan kelishik shakli gapdagi so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatni belgilash bilan birga, mazkur munosabatning semantik turini ham aniqlaydi. Masalan, o'zbek tilidagi *-dan* affiksi harakatning boshlanish nuqtasi, ajralish, manba yoki subyekt manbaini ifodalashi mumkin. Rus tilida esa ushbu ma'nolarning har biri alohida konstruksiyalar bilan ifodalanishi ehtimoli yuqori. Shuning uchun qiyosiy tahlilda "bir kelishik – bir ma'no" tamoyilidan foydalanish ilmiy jihatdan cheklangan yondashuv hisoblanadi.

Kelishik kategoriyasining sintaktik tabiati ham ikki tilda bir xil darajada namoyon bo'lmaydi. O'zbek tilida kelishik affikslari so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatni ko'rsatishda muhim vosita bo'lib, so'z tartibi nisbatan barqaror bo'lsa-da, kelishik ko'rsatkichlari sintaktik munosabatni aniqlashga yordam beradi. Rus tilida esa kelishik shakllari bilan bir qatorda so'z tartibi va ko'makchilar ham sintaktik munosabatni belgilashda faol ishtirok etadi. Shu bois rus tilidagi kelishik shaklining funksiyasini faqat uning flektiv ko'rsatkichidan kelib chiqib aniqlash har doim ham mumkin emas.

Ikki tilning kelishik tizimlari o'rtasidagi tafovutlar ularni o'rganish jarayonida interferensiya hodisasining yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi. O'zbek tilida grammatik munosabatlarning affiksial ifodalanishi ustuvor bo'lgani sababli o'zbek tilida so'zlashuvchi rus tilini o'rganishda ko'makchi va kelishikning o'zaro birikishini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Masalan, *в школе* yoki *с другом* kabi konstruksiyalarni o'zbek tilining *maktabda* va *do'st bilan* modellari asosida mexanik tarzda o'zlashtirish rus tilidagi kelishik shakllarining barcha funksiyalarini anglashga yetarli bo'lmaydi. Shu jihatdan qiyosiy grammatika til o'rgatish metodikasi uchun nafaqat nazariy, balki diagnostik ahamiyatga ham ega.

Rus va o'zbek tillaridagi kelishik kategoriyasini qiyoslash shuni ko'rsatadiki, ikki til o'rtasidagi grammatik muvofiqlikni belgilashda uch darajani ajratish maqsadga muvofiq: formal muvofiqlik, funksional muvofiqlik va semantik muvofiqlik. Formal muvofiqlik grammatik shakllarning tashqi ifodasi o'xshashligini, funksional muvofiqlik bir xil sintaktik vazifani bajarishini, semantik muvofiqlik esa bir xil mazmuniy munosabatni ifodalashini anglatadi. Rus va o'zbek tillaridagi kelishik birliklari ko'pincha funksional va semantik jihatdan muvofiq bo'lsa-da, formal jihatdan farqlanadi. Ayrim holatlarda esa semantik maydonning hajmi ham bir-biriga to'liq mos kelmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, rus va o'zbek tillaridagi kelishik kategoriyasini qiyoslashda paradigmatic va sintagmatic yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur.

Paradigmatik yondashuv kelishik shakllarining tizimdagi oʻrnini aniqlash imkonini bersa, sintagmatik yondashuv ularning real nutqiy qoʻllanishini, boshqa soʻzlar bilan munosabatini va konkret kontekstdagi semantik vazifasini ochib beradi. Aynan shu ikki yondashuvning birligi kelishik kategoriyasining funksional mohiyatini toʻliqroq yoritishga xizmat qiladi.

XULOSA

Rus va oʻzbek tillaridagi kelishik kategoriyasining qiyosiy-tipologik tahlili mazkur tillarda grammatik munosabatlarni ifodalashning umumiy funksional asoslari mavjudligini, biroq ularning morfologik va sintaktik ifodalanish mexanizmlari sezilarli darajada farqlanishini koʻrsatdi. Har ikki tilda kelishik kategoriyasi otlarning gapdagi boshqa birliklar bilan munosabatini shakllantiruvchi muhim grammatik vosita boʻlib xizmat qiladi. Biroq rus tilining flektiv va oʻzbek tilining agglutinatib tabiati kelishik shakllarining strukturaviy tashkil topishiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Oʻzbek tilidagi kelishik shakllari asosan affiksial vositalar yordamida hosil boʻlib, grammatik maʼnolar izchil va segmentlangan holda ifodalanadi. Rus tilida esa kelishik maʼnolari flektiv shakl oʻzgarishi, fonetik-morfologik alternatsiyalar hamda koʻmakchi-kelishik konstruksiyalari orqali yuzaga keladi. Natijada ikki tilda bir xil semantik munosabat turli grammatik vositalar bilan ifodalanishi mumkin.

Qiyoslash natijasida oʻzbek tilidagi bosh, qaratqich, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt va chiqish kelishiklari rus tilidagi *именительный, родительный, винительный, дательный, предложный* va ayrim hollarda *творительный* hamda koʻmakchili konstruksiyalar bilan funksional jihatdan muvofiqlashishi aniqlandi. Biroq ushbu muvofiqlik mutlaq ekvivalentlikni anglatmaydi. Ayniqsa, rus tilidagi *родительный, творительный va предложный* *падеж*larning semantik imkoniyatlari oʻzbek tilidagi muayyan kelishik shakllariga toʻliq teng emas.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundaki, rus va oʻzbek tillaridagi kelishik kategoriyalarini qiyoslashda formal shaklga emas, balki “shakl – maʼno – funksiya – kontekst” munosabatiga asoslanish zarur. Bunday yondashuv kelishik shakllarining real nutqdagi funksional imkoniyatlarini aniqroq ochib berishga yordam beradi.

Qiyosiy tahlil natijalari rus tilini oʻzbek auditoriyasida oʻqitishda ham muhim metodik xulosalar chiqarish imkonini beradi. Xususan, oʻquvchilarda kelishik shakllarini shakliy yodlash emas, balki ularning semantik va sintaktik vazifalarini kontekst asosida anglash koʻnikmasini shakllantirish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, rus va oʻzbek tillaridagi kelishik munosabatlarning farqlarini oldindan aniqlash interferensiyon xatolarning oldini olish va grammatik kompetensiyani rivojlantirish uchun samarali metodik asos boʻlib xizmat qiladi.



Umuman, rus va o‘zbek tillaridagi kelishik kategoriyasi o‘rtasidagi munosabatni to‘liq formal ekvivalentlik emas, balki funksional-semantik muvofiqlik asosida tavsiflash ilmiy jihatdan asosliroqdir. Mazkur xulosa ikki tilning morfologik tizimini qiyosiy o‘rganish, tarjima jarayonida grammatik ekvivalentlarni aniqlash va rus tilini o‘zbek tilida o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun nazariy asos bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azizov A.A. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков: Морфология. Ташкент: Гос. учебно-педагогическое издательство УзССР, 1960. 199 с.
2. Валгина Н.С., Розенталь Д.Э., Фомина М.И. Современный русский язык. 6-е изд., перераб. и доп. Москва: Логос, 2001. 528 с.
3. Шведова Н.Ю. (ред.). Русская грамматика: в 2 т. Т. 1: Фонетика. Фонология. Ударение. Интонация. Словообразование. Морфология. Москва: Наука, 1980.
4. Зализняк А.А. Русское именное словоизменение. Москва: Наука, 1967.
5. Бондарко А.В. Теория морфологических категорий. Ленинград: Наука, 1976.
6. Реформатский А.А. Введение в языковедение. Москва: Аспект Пресс, 1996.
7. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание. Ленинград: Наука, 1976.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2013.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
10. Abdurahmonov G‘., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.
11. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.
12. Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1975.
13. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida sintaktik munosabatlar. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2002.
14. Qodirov Z. O‘zbek tili grammatik kategoriyalarini sistem tadqiq etish (Kelishik kategoriyasi): filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 1993.
15. Тургуналиева Ш. Сопоставительный анализ категории падежа имени существительного в русском и узбекском языках. *Qo‘qon universiteti xabarnomasi*. 2026. № 18. С. 289–291. DOI: 10.54613/ku.v18i.1647.
16. Жалилова М.Р. Сравнительное изучение падежной системы русского и узбекского языков. *Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali*. 2025. Т. 3, № 1. DOI: 10.5281/zenodo.15149541.



**KO'RISHIDA NUQSONI BO'LGAN
O'QUVCHILARDA O'QUV MOTIVATSIYASI VA
IJTIMOIY-KOMMUNIKATIV FAOLLIKNI
INDIVIDUAL PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
QO'LLAB-QUVVATLASH ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH**

**DEVELOPING LEARNING MOTIVATION AND
SOCIO-COMMUNICATIVE ACTIVITY IN
STUDENTS WITH VISUAL IMPAIRMENTS
THROUGH INDIVIDUALIZED PEDAGOGICAL
AND PSYCHOLOGICAL SUPPORT**

**РАЗВИТИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ И
СОЦИАЛЬНО-КОММУНИКАТИВНОЙ
АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ С НАРУШЕНИЯМИ
ЗРЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ
ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ
ПОДДЕРЖКИ**

FAN TARMOG'I
19.00.00 – Psixologiya

QABUL QILINDI
15.08.2026

CHOP ETILDI
18.08.2026

Oybek Alisher o'g'li Abdullayev
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va kommunikativ faolligini individual pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash asosida rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va tajriba-sinov natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekistonning Toshkent shahri, Sirdaryo va Andijon hududlaridagi "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan 151 nafar o'quvchini qamrab oldi; ulardan 79 nafari tajriba, 72 nafari nazorat guruhiga kiritildi. Diagnostikada o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy faollik hamda kommunikativ faollik integral mezonlar sifatida baholandi. Individual rivojlanish xaritasi, adaptiv o'quv topshiriqlari, psixologik rag'batlantirish, refleksiv suhbat, ijtimoiy-kommunikativ mashqlar va mutaxassislararo hamkorlikka tayangan qo'llab-quvvatlash texnologiyasi tajriba guruhida qo'llandi. Natijalar tajriba guruhida o'qish motivatsiyasi 74,3 foiz, ijtimoiy faollik 72,7 foiz, kommunikativ faollik 72,7 foizni tashkil etganini ko'rsatdi; nazorat guruhidagi tegishli ko'rsatkichlar 62,3; 63,7 va 62,0 foiz bo'ldi. Olingan natijalar individual yondashuv bolaning kompetentlik hissi, ijtimoiy aloqadorligi va faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash orqali o'quv faoliyatining psixologik resurslarini kuchaytirishini asoslaydi.

Kalit so'zlar: ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchi, o'quv motivatsiyasi, ijtimoiy faollik, kommunikativ faollik, individual yondashuv, pedagogik-psixologik

qo‘llab-quvvatlash, “Nurli maskan”, psixologik adaptatsiya, individual rivojlanish xaritasi.

ABSTRACT

This article examines the psychological mechanisms and empirical outcomes of individualized pedagogical and psychological support aimed at enhancing learning motivation, social activity, and communicative activity among students with visual impairments. The study involved 151 students from specialized Nurli Maskan schools in Tashkent City, Sirdarya, and Andijan; 79 students formed the experimental group and 72 the control group. Learning motivation, social activity, and communicative activity were assessed as integrated psychological and behavioral indicators. The support technology combined an individual development map, adaptive learning tasks, psychological reinforcement, reflective dialogue, socio-communicative exercises, and interdisciplinary cooperation among teachers and support specialists. In the experimental group, the final indicators reached 74.3% for learning motivation, 72.7% for social activity, and 72.7% for communicative activity, compared with 62.3%, 63.7%, and 62.0% in the control group. The findings indicate that individualized support can strengthen psychological resources for learning by increasing perceived competence, relatedness, active participation, and opportunities for successful communication.

Keywords: visual impairment, learning motivation, social activity, communicative activity, individualized approach, pedagogical and psychological support, psychological adaptation, individual development map.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются психологические механизмы и результаты опытно-экспериментальной работы по развитию учебной мотивации, социальной и коммуникативной активности учащихся с нарушениями зрения средствами индивидуальной педагогико-психологической поддержки. Исследование охватило 151 учащегося специализированных школ «Нурли маскан» города Ташкента, Сырдарьинской и Андижанской областей: 79 человек составили экспериментальную, 72 – контрольную группу. В качестве интегральных показателей оценивались учебная мотивация, социальная активность и коммуникативная активность. Технология поддержки включала индивидуальную карту развития, адаптивные учебные задания, психологическое подкрепление, рефлексивные беседы, социально-коммуникативные упражнения и междисциплинарное сопровождение. В экспериментальной группе показатели составили соответственно 74,3%, 72,7% и 72,7%, тогда как в контрольной группе – 62,3%, 63,7% и 62,0%. Результаты

подтверждают целесообразность индивидуализированной поддержки для усиления психологических ресурсов учебной деятельности и социальной включенности детей с нарушениями зрения.

Ключевые слова: нарушение зрения, учебная мотивация, социальная активность, коммуникативная активность, индивидуальный подход, психолого-педагогическая поддержка, психологическая адаптация, карта индивидуального развития.

KIRISH

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ta'lim olish huquqini ta'minlash zamonaviy ta'lim siyosatining nafaqat pedagogik, balki psixologik vazifasi hamdir. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim ta'lim oluvchilarning alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining xilma-xilligini hisobga olgan holda teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim sifatida belgilangan [1]. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirishga doir davlat siyosatida ularning rivojlanishi, reabilitatsiyasi va jamiyatga integratsiyalashuvi ustuvor yo'nalish sifatida qayd etilgan [2, 3]. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun "Nurli maskan" maktablarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus chora-tadbirlar belgilanganligi esa mazkur toifadagi o'quvchilar bilan individual ishlashning institutsional asosini kuchaytiradi [4]. 2025-yilda individual ta'lim rejalari va individual rivojlanish xaritalarini maxsus maktablarda joriy etish va monitoring qilishga alohida e'tibor qaratilgani individual yondashuvning amaliy ahamiyatini yanada oshirdi [5].

Ko'rishning cheklanganligi bolaning intellektual imkoniyatlarini avtomatik tarzda cheklamaydi, biroq u axborotni qabul qilish kanallari, ijtimoiy signallarni anglash, makon bo'ylab mustaqil harakatlanish, tengdoshlar bilan spontan muloqot va o'z xatti-harakatini vaziyatga mos boshqarish jarayoniga o'ziga xos talablar qo'yadi. Ko'rish orqali olinadigan mimika, nigoh yo'nalishi, tana holati va boshqa noverbal ijtimoiy signallarning qisqarishi ayrim o'quvchilarda ijtimoiy vaziyatni talqin qilishni murakkablashtirishi mumkin. Klauke, Sondocie va Fine past ko'rish holatida vizual ijtimoiy signallarning yo'qolishi ijtimoiy funksionallik uchun alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [15]. Shu sababli maxsus ta'lim muhitida pedagogik adaptatsiya bilan bir qatorda muloqot, ijtimoiy tashabbus, o'ziga ishonch va motivatsion barqarorlikni qo'llab-quvvatlovchi psixologik komponent zarur.

O'quv motivatsiyasi nuqtayi nazaridan individual yondashuvning nazariy asosi o'z-o'zini belgilash nazariyasi bilan izohlanishi mumkin. Ryan va Deki insonning faol, barqaror va ichki jihatdan boshqariladigan faoliyati avtonomiya, kompetentlik va aloqadorlik kabi bazaviy psixologik ehtiyojlarning qondirilishi bilan bog'liqligini

asoslaydi [6, 7]. Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchi uchun vazifaning sensor va kognitiv jihatdan moslashtirilishi, bajarish usulini tanlash imkoniyati, muvaffaqiyatning aniq qayd etilishi hamda pedagog va tengdoshlar bilan qo‘llab-quvvatlovchi munosabat kompetentlik va aloqadorlik hissini kuchaytirishi mumkin. Banduraning o‘z samaradorligiga ishonch konsepsiyasida ham faoliyatdagi muvaffaqiyat tajribasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va o‘z holatini boshqarish keyingi faoliyatga kirishish ehtimolini oshiruvchi muhim psixologik omillar sifatida ko‘rsatiladi [8].

Ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlar bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘quv hamda sotsial-emotsional rivojlanishga ta‘sirini qayd etadi. Manitsa va Doikou o‘quv muassasalarida xodimlar va tengdoshlar tomonidan ko‘rsatiladigan hamkorlik, empatik munosabat va amaliy yordam akademik o‘rganish hamda sotsial-emotsional rivojlanish uchun resurs bo‘lishini ta‘kidlaydi [11]. Yuan va hammualliflar ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda idrok etilgan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini qadrlash va ijtimoiy integratsiya o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlikni ko‘rsatgan [12]. Robertson, Tadić va Rahi yoshlarning ko‘rish buzilishi bilan ulg‘ayish tajribasida o‘zini anglash, mustaqillik va atrofdagilarning munosabati markaziy psixologik mavzular ekanini aniqlagan [14].

Ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalar ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarda maqsadli rivojlantirilishi mumkin. Caron va hammualliflarning tizimli sharhi turli yoshdagi bolalar va o‘smirlarda ijtimoiy ko‘nikmalarga yo‘naltirilgan intervension dasturlar ijobiy natijalar berishi mumkinligini ko‘rsatadi [13]. Yildiz va Duy tomonidan ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan erta o‘smirlar bilan o‘tkazilgan psixoedukatsion dastur empatiya va kommunikativ ko‘nikmalarni yaxshilagan [19]. Zamonaviy tadqiqotlarda esa ijtimoiy kommunikatsiya va o‘z ehtiyojini ifoda etishni rivojlantirishga mo‘ljallangan raqamli vositalar ham sinovdan o‘tkazilmoqda; Vi-Connect loyihasi shunday yondashuvning misolidir [17]. Bu dalillar individual pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlashni faqat o‘quv materialini moslashtirish bilan cheklamasdan, motivatsion va ijtimoiy-kommunikativ mexanizmlarni ham qamrab olish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, “Nurli maskan” muassasalari sharoitida o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy faollik va kommunikativ faollikni yagona individual qo‘llab-quvvatlash texnologiyasi doirasida o‘rganish amaliy jihatdan muhimdir. Mazkur maqolaning maqsadi - individual pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash texnologiyasining ko‘rishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va kommunikativ faolligiga ta‘sirini empirik natijalar asosida tahlil qilish. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, individual rivojlanish ehtiyojlari va funksional imkoniyatlariga moslashtirilgan, psixologik rag‘batlantirish hamda ijtimoiy-

kommunikativ mashqlar bilan boyitilgan qo'llab-quvvatlash tizimi tajriba guruhida mazkur uch indikatorning nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq namoyon bo'lishiga olib keladi [20].

ASOSIY QISM

Tadqiqot kvazi-eksperimental dizaynda tashkil etildi va miqdoriy diagnostik ko'rsatkichlarni pedagogik-psixologik kuzatuv bilan uyg'unlashtirdi. Tajriba-sinov bazasi sifatida Toshkent shahri, Sirdaryo va Andijon hududlaridagi "Nurli maskan" ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari tanlandi. Umumiy tanlanma 151 nafar o'quvchidan iborat bo'lib, 79 nafar o'quvchi tajriba guruhiga, 72 nafar o'quvchi nazorat guruhiga kiritildi. Hududlar kesimidagi taqsimot 1-jadvalda keltirilgan [20].

Tadqiqotda uchta asosiy natijaviy ko'rsatkich baholandi: 1) o'qish/o'quv motivatsiyasi - o'quv topshirig'iga kirishish, vazifani davom ettirish, muvaffaqiyatga intilish va o'quv faoliyatiga ijobiy munosabat bilan bog'liq ko'rsatkichlar majmui; 2) ijtimoiy faollik - jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, tashabbus ko'rsatish, yordam so'rash yoki yordam taklif qilish, guruh qoidalariga mos hamkorlik qilish; 3) kommunikativ faollik - suhbatni boshlash va davom ettirish, o'z fikri va ehtiyojini tushunarli ifodalash, savol berish, javob qaytarish va muloqot vaziyatiga mos verbal hamda mavjud noverbal vositalardan foydalanish. Ushbu indikatorlar tadqiqotning individual rivojlanish xaritasi va pedagogik-psixologik diagnostika bloklari bilan integratsiyada baholandi [20].

Baholashda yuqori, o'rta va quyi darajalarni ifodalovchi integral mezonlashdan foydalanildi. Darajaviy natijalar umumlashtirilganda 3 ballik og'irlik tizimi asosida o'rtacha ko'rsatkichlar hisoblandi; shu sababli nazorat va tajriba guruhlarining integral o'rtacha qiymatlari 1 dan 3 gacha bo'lgan diapazonda ifodalandi. Miqdoriy tahlilda foiz ko'rsatkichlari, o'rtacha qiymatlar, samaradorlik koeffitsiyenti va 95 foizlik ishonch oralig'idan foydalanildi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarni tekshirishda Student mezoni qo'llanildi; maqolada faqat dissertatsiya materiallarida qayd etilgan va tekshirilgan agregat natijalar keltirildi [20].

Tajriba guruhidagi qo'llab-quvvatlash texnologiyasi individual rivojlanish xaritasiga tayandi. Mazkur xarita o'quvchining sensor imkoniyatlari, o'quv faoliyatiga kirishish xususiyatlari, kommunikativ ehtiyojlari, ijtimoiy ishtiroki va psixologik resurslari bo'yicha dinamik ma'lumotlarni birlashtirishga xizmat qildi. Har bir o'quvchi uchun vazifalarning murakkabligi, taqdim etish kanali, yordam miqdori, teskari aloqa shakli va mustaqil bajarish ulushi moslashtirildi. Bu yondashuv "hamma uchun bir xil yordam" modelidan "zaruratga mos, bosqichma-bosqich kamayib boruvchi yordam" modeliga o'tishni ko'zda tutadi.

Psixologik komponent to'rtta amaliy mexanizmga tayandi. Birinchidan, muvaffaqiyat tajribasini ko'paytirish uchun topshiriqlar o'quvchining mavjud

imkoniyatiga mos darajadan boshlanib, keyinchalik murakkablashtirildi. Ikkinchidan, natija emas, faol urinish, strategiyani to'g'ri tanlash va mustaqillik darajasi ham ijobiy teskari aloqa bilan mustahkamlandi. Uchinchidan, refleksiv suhbatlar orqali o'quvchi o'z qiyinchiligi, muvaffaqiyati va keyingi maqsadini verbal ravishda ifodalashga yo'naltirildi. To'rtinchidan, juftlik va kichik guruhdagi kommunikativ mashqlar yordam so'rash, o'z fikrini bildirish, kelishish, tinglash va sherikning pozitsiyasini hisobga olish kabi ijtimoiy xatti-harakatlarni faollashtirishga qaratildi. Bunday tuzilma o'z-o'zini belgilash nazariyasidagi kompetentlik va aloqadorlik ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash tamoyillariga mos keladi [6, 7].

Pedagog, psixolog va boshqa mutaxassislar o'rtasidagi axborot almashinuvi qo'llab-quvvatlashning izchilligini ta'minlovchi omil sifatida ko'rildi. O'quvchining bir vaziyatda namoyon qilgan muvaffaqiyati yoki qiyinchiligi boshqa mashg'ulotlarda ham inobatga olinishi, individual yordam strategiyasining turli mutaxassislar tomonidan bir-biriga zid bo'lmagan shaklda qo'llanishi ko'zda tutildi. Bu yondashuv ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda rivojlanishning sensor, kognitiv va sotsial-emotsional jihatlarini alohida emas, o'zaro bog'langan tizim sifatida ko'rishga imkon beradi [9, 16].

Tadqiqotda shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlari maqola materiallariga kiritilmadi; natijalar guruh darajasida umumlashtirildi. Bunday yondashuv maxsus ta'lim muassasasidagi bolalar haqidagi ma'lumotlardan foydalanishda maxfiylik va ehtiyotkor ilmiy talqinni saqlash uchun muhimdir.

1-jadval. Tajriba-sinov ishtirokchilarining hududlar va guruhlar bo'yicha taqsimoti

Hudud	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi	Jami
Sirdaryo	23	25	48
Andijon	24	27	51
Toshkent shahri	25	27	52
Jami	72	79	151

Izoh: guruhlar bo'yicha sonlar dissertatsiyaning tajriba-sinov bazasi haqidagi yakuniy ma'lumotlar asosida berildi [20].

Tajriba-sinov natijalari uchala asosiy psixologik-pedagogik indikator bo'yicha tajriba guruhida yuqoriroq yakuniy ko'rsatkich shakllanganini ko'rsatdi. O'qish motivatsiyasi nazorat guruhida 62,3 foiz bo'lgan bo'lsa, tajriba guruhida 74,3 foizga yetgan; farq 12,0 foiz punktni tashkil etdi. Ijtimoiy faollik nazorat guruhida 63,7 foiz, tajriba guruhida 72,7 foiz bo'lib, 9,0 foiz punktik ustunlik kuzatildi. Kommunikativ faollik bo'yicha esa nazorat guruhidagi 62,0 foiz ko'rsatkich tajriba guruhida 72,7 foizni tashkil etib, farq 10,7 foiz punktga teng bo'ldi [20].

Ключевые слова: цивилизация, межкультурные связи, мировая история, культурный обмен, торговые пути, Восток и Запад, научные связи, религиозные связи, глобальная история, историческое развитие.

KIRISH

Jahon tarixiy taraqqiyoti turli xalqlar, davlatlar va sivilizatsiyalar o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali munosabatlar asosida shakllangan. Insoniyat tarixining dastlabki bosqichlaridanoq turli hududlarda yashagan xalqlar o'zaro savdo qilgan, ilmiy va madaniy tajriba almashgan, diniy qarashlar hamda texnologik yangiliklarni bir hududdan ikkinchi hududga olib o'tgan. Shu sababli jahon tarixini alohida davlatlar va xalqlarning bir-biridan uzilgan tarixi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq jarayonlar majmui sifatida o'rganish muhimdir.

Sivilizatsiyalararo aloqalar tushunchasi keng mazmunga ega bo'lib, u turli sivilizatsiyalar vakillari o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, diplomatik, diniy, ilmiy va madaniy munosabatlarni qamrab oladi. Bunday aloqalar ba'zan tinch hamkorlik va almashinuv shaklida, ayrim hollarda esa raqobat, ziddiyat va harbiy to'qnashuvlar shaklida namoyon bo'lgan.

Zamonaviy global tarix yondashuvi jahon tarixini faqat alohida milliy davlatlar tarixining yig'indisi sifatida emas, balki turli hududlar va jamiyatlar o'rtasidagi bog'lanishlar tizimi sifatida talqin qilishga imkon beradi. Masalan, Peter Frankopan

Buyuk ipak yo‘llarini oddiy savdo yo‘nalishlari emas, balki turli qit’alarni bog‘lagan, ular orqali tovarlar bilan bir qatorda g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar va kasalliklar ham tarqalgan murakkab tarmoqlar sifatida ko‘rsatadi.

Shu jihatdan sivilizatsiyalararo aloqalarni o‘rganish jahon tarixidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarning sabablarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Sivilizatsiyalararo aloqalar jahon tarixiy taraqqiyotining muhim va ajralmas tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Insoniyat tarixining turli bosqichlarida alohida hududlarda shakllangan jamiyatlar o‘zaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy va ilmiy munosabatlarga kirishgan. Mazkur aloqalar natijasida xalqlar o‘rtasida moddiy boyliklar, bilimlar, g‘oyalar, texnologiyalar, diniy qarashlar, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar almashinuvi yuzaga kelgan. Shu sababli jahon tarixini alohida davlatlar va xalqlarning bir-biridan mustaqil rivojlanishi asosida emas, balki ularning o‘zaro ta’siri va tarixiy aloqalari tizimi sifatida o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Sivilizatsiyalararo aloqalarning dastlabki shakllari qadimgi davrlardayoq vujudga kelgan. Mesopotamiya, Misr, Hindiston, Xitoy, Eron, Markaziy Osiyo va O‘rta Yer dengizi hududlarida shakllangan qadimgi sivilizatsiyalar o‘rtasida savdo va diplomatik munosabatlar rivojlangan. Savdo yo‘llari orqali turli hududlar o‘rtasida qimmatbaho metallar, ipak, ziravorlar, hunarmandchilik mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va boshqa tovarlar almashilgan. Biroq ushbu jarayonning ahamiyati faqat iqtisodiy munosabatlar bilan cheklanmagan. Savdogarlar, sayohatchilar, elchilar, olimlar va diniy arboblarning harakatlanishi natijasida turli xalqlarning bilimlari, dunyoqarashi va madaniy tajribasi ham keng hududlarga tarqalgan. Demak, savdo aloqalari sivilizatsiyalararo madaniy va intellektual almashinuvning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Mazkur jarayonlarda Buyuk ipak yo‘li alohida tarixiy ahamiyat kasb etadi. U Xitoy va Markaziy Osiyodan boshlanib, Eron, Yaqin Sharq, O‘rta Yer dengizi va Yevropa hududlarigacha cho‘zilgan murakkab savdo va kommunikatsiya tarmog‘ini tashkil etgan. Ushbu yo‘llar orqali nafaqat tovarlar, balki turli diniy qarashlar, ilmiy bilimlar, texnologiyalar va madaniy an’analar ham bir hududdan ikkinchi hududga ko‘chib borgan. Shu jihatdan Buyuk ipak yo‘lini qadimgi va o‘rta asrlar davridagi iqtisodiy munosabatlarning mahsuli sifatida emas, balki sivilizatsiyalararo o‘zaro ta’sirni ta’minlagan tarixiy kommunikatsiya tizimi sifatida baholash mumkin. Peter Frankopan o‘z tadqiqotlarida ushbu yo‘llarning jahon tarixidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratadi.

Sivilizatsiyalararo aloqalarning muhim ko‘rinishlaridan yana biri ilmiy va intellektual almashinuvdir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, ilmiy bilimlarning rivojlanishi ko‘pincha turli xalqlar va hududlarning o‘zaro aloqalari bilan bog‘liq

bo'lgan. Qadimgi yunon falsafasi, hind matematika maktabi, xitoy texnologik tajribasi va islom olamida rivojlangan astronomiya, tibbiyot, matematika, geografiya va falsafa kabi fanlar keyinchalik boshqa hududlardagi ilmiy tafakkur taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan. Ayniqsa, o'rta asrlarda islom sivilizatsiyasining ilmiy markazlari Sharq va G'arb o'rtasidagi bilim almashinuvining muhim bo'g'iniga aylangan. Markaziy Osiyoda faoliyat olib borgan Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi olimlarning ilmiy merosi turli hududlarda ilm-fan taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu holat ilmiy taraqqiyotni muayyan xalq yoki hudud bilan chegaralash emas, balki turli sivilizatsiyalar o'rtasidagi uzoq muddatli intellektual almashinuv natijasi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Sivilizatsiyalararo aloqalar diniy va ma'naviy jarayonlarga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Buddaviylik, xristianlik va islom kabi jahon dinlarining turli hududlarga tarqalishi xalqlar o'rtasidagi aloqalarning kuchayishiga xizmat qilgan. Diniy g'oyalar bilan bir qatorda me'morchilik, san'at, yozuv, ta'lim va ijtimoiy hayotga oid qarashlar ham yangi hududlarga kirib borgan. Shu bilan birga, diniy ta'sir har doim bir xil shaklda namoyon bo'lmagan. Mahalliy an'analar bilan yangi diniy qarashlarning o'zaro ta'siri natijasida o'ziga xos madaniy shakllar vujudga kelgan. Bu jarayon sivilizatsiyalararo aloqalarning oddiy bir tomonlama ta'sir emas, balki o'zaro moslashuv va qayta shakllanish jarayoni ekanini ko'rsatadi.

Sharq va G'arb o'rtasidagi tarixiy munosabatlar sivilizatsiyalararo aloqalarning eng murakkab ko'rinishlaridan biridir. Ushbu munosabatlar savdo va diplomatik aloqalar bilan bir qatorda urushlar, siyosiy raqobat, diniy qarama-qarshiliklar va hududiy manfaatlar to'qnashuvi orqali ham shakllangan. Salib yurishlari, mo'g'ullar istilosi, Usmonli imperiyasining Yevropa davlatlari bilan munosabatlari hamda keyingi davrlardagi mustamlakachilik jarayonlari Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarning ziddiyatli jihatlarini namoyon etadi. Biroq bunday qarama-qarshiliklar ham uzoq muddatli madaniy, iqtisodiy va siyosiy o'zaro ta'sirlarni yuzaga keltirgan. Shu sababli sivilizatsiyalararo munosabatlarni faqat tinch hamkorlik yoki faqat to'qnashuv asosida tushuntirish tarixiy jarayonning murakkabligini to'liq ochib bermaydi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab sivilizatsiyalararo aloqalar yanada keng miqyosga ega bo'ldi. XV–XVI asrlarda Yevropa davlatlarining Osiyo, Afrika va Amerika hududlari bilan aloqalarining kuchayishi jahon tarixida yangi bosqichni yuzaga keltirdi. Savdo yo'llarining o'zgarishi, yangi hududlarning o'zlashtirilishi, xalqaro savdoning kengayishi va turli qit'alar o'rtasidagi doimiy aloqalarning shakllanishi jahon iqtisodiy tizimining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Shu bilan birga, ushbu jarayon mustamlakachilik, iqtisodiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat va demografik o'zgarishlar kabi murakkab oqibatlarni ham keltirib chiqardi.

Demak, sivilizatsiyalararo aloqalar tarixini o'rganishda uning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda siyosiy va iqtisodiy tengsizlikni yuzaga keltirgan omillarini ham hisobga olish zarur.

Sanoat inqilobi va kapitalistik ishlab chiqarish tizimining rivojlanishi sivilizatsiyalararo aloqalarning iqtisodiy mazmunini yanada o'zgartirdi. XIX asrda transport va aloqa vositalarining takomillashishi natijasida davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik kuchaydi. Temir yo'llar, paroxodlar, telegraf va keyinchalik telefon kabi texnologiyalar masofa omilining iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini kamaytirdi. Xalqaro savdoning kengayishi bilan birga kapital, tovarlar, texnologiyalar va ishchi kuchining xalqaro harakati ham kuchaydi. Natijada turli mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi tobora ko'proq umumjahon jarayonlari bilan bog'langan boshladi.

Jahon tarixidagi iqtisodiy o'zgarishlarni sivilizatsiyalararo aloqalardan ajratib o'rganish tarixiy jarayonlarning sabablarini biryoqlama talqin qilishga olib kelishi mumkin. Kenneth Pomeranzning tadqiqotlari Yevropa va Sharqiy Osiyoning iqtisodiy rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish orqali XVIII asrgacha bo'lgan davrda dunyoning turli hududlari o'rtasidagi rivojlanish farqlarini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Uning yondashuvida Yevropaning keyingi iqtisodiy ustunligini faqat ichki omillar bilan izohlash yetarli emasligi, resurslar, savdo tarmoqlari va global iqtisodiy munosabatlarning ham muhim rol o'ynagani ko'rsatiladi.

XX asrga kelib sivilizatsiyalararo aloqalarning siyosiy mazmuni yanada murakkablashdi. Jahon urushlari, mustamlakachilik tizimining yemirilishi, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi va xalqaro tashkilotlarning shakllanishi jahon siyosiy tizimining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda Osiyo va Afrika mamlakatlarining siyosiy mustaqillikka erishishi natijasida xalqaro munosabatlarda yangi subyektlar paydo bo'ldi. Bu jarayon jahon tarixini faqat Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari faoliyati orqali tushuntirishning cheklanganligini ko'rsatdi.

Zamonaviy tarixshunoslikda aynan shu sababli global tarix va transmilliy tarix yondashuvlarining ahamiyati ortib bormoqda. Global tarix alohida mamlakatlar tarixini o'zaro bog'liq jarayonlar tizimida o'rganishni nazarda tutadi. Sebastian Konrad global tarix yondashuvi orqali tarixiy jarayonlarni milliy chegaralardan tashqarida, hududlar va jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bunday yondashuv sivilizatsiyalarni bir-biridan ajratilgan va mustaqil rivojlangan birliklar sifatida emas, balki doimiy aloqada bo'lgan tarixiy tizimlar sifatida tadqiq etishga imkon beradi.

Sivilizatsiyalararo aloqalarning jahon tarixidagi ahamiyati, avvalo, tarixiy taraqqiyotning ko'p markazli xususiyatini ochib berishi bilan belgilanadi. Insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotini faqat bitta hudud yoki xalq faoliyati bilan bog'lash tarixiy jarayonning umumiy mohiyatini toraytirib ko'rsatadi. Turli davrlarda Xitoy,

Hindiston, Markaziy Osiyo, Eron, Arab xalifaligi, Vizantiya, Yevropa, Afrika va Amerika hududlarida shakllangan jamiyatlar jahon tarixining turli bosqichlarida muhim rol o'ynagan. Ularning o'zaro munosabatlari natijasida yangi iqtisodiy, siyosiy va madaniy shakllar yuzaga kelgan.

Shuningdek, sivilizatsiyalararo aloqalar tarixiy tajribaning uzluksizligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bir sivilizatsiyada yaratilgan g'oya yoki texnologiya boshqa hududga o'tishi jarayonida o'zgarib, mahalliy sharoitga moslashgan. Natijada dastlabki g'oya yoki texnologiyaning yangi shakllari vujudga kelgan. Bu holat sivilizatsiyalar taraqqiyotining o'zaro ta'sirga asoslangan dinamik jarayon ekanligini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan tarixiy taraqqiyotni "markaz" va "chekka" hududlarning qarama-qarshiligi asosida emas, balki o'zaro ta'sir, almashinuv va moslashuv jarayonlari orqali o'rganish ilmiy jihatdan samaraliroq hisoblanadi.

Umuman olganda, sivilizatsiyalararo aloqalar jahon tarixining barcha muhim bosqichlarida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ilmiy o'zgarishlarning muhim omillaridan biri bo'lib kelgan. Ularning ta'siri natijasida xalqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik kuchaygan, bilim va texnologiyalar keng hududlarga tarqalgan, savdo tizimlari rivojlangan va yangi madaniy shakllar vujudga kelgan. Shu bilan birga, sivilizatsiyalararo munosabatlarning ziddiyatli jihatlari ham mavjud bo'lib, urushlar, mustamlakachilik, iqtisodiy tengsizlik va madaniy qarama-qarshiliklar jahon tarixining muhim qismini tashkil etadi. Shuning uchun sivilizatsiyalararo aloqalarni kompleks va ko'p qirrali tarixiy hodisa sifatida o'rganish jahon tarixining yaxlit manzarasini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Sivilizatsiyalararo aloqalar jahon tarixiy taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Tarixiy jarayonlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, turli sivilizatsiyalar hech qachon mutlaq izolyatsiyada mavjud bo'lmagan. Savdo, migratsiya, diplomatiya, diniy aloqalar, ilmiy almashinuv va madaniy munosabatlar ularning rivojlanishiga doimiy ravishda ta'sir ko'rsatgan.

Buyuk ipak yo'li kabi tarixiy tarmoqlar turli qit'alar va sivilizatsiyalarni bog'lab, moddiy va ma'naviy boyliklarning tarqalishiga xizmat qilgan. Ilm-fan, texnologiya, din, san'at va madaniyat sohalaridagi ko'plab yutuqlarning keng hududlarga tarqalishida sivilizatsiyalararo aloqalarning ahamiyati katta bo'lgan.

Shuningdek, sivilizatsiyalararo munosabatlar faqat tinch hamkorlikdan iborat bo'lmagan. Urushlar, siyosiy raqobat va iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi ham ushbu munosabatlarning muhim shakllarini tashkil etgan. Biroq hatto bunday jarayonlar ham uzoq muddatli madaniy va siyosiy o'zaro ta'sirlarning shakllanishiga olib kelgan.



Shu jihatdan zamonaviy jahon tarixini o'rganishda sivilizatsiyalarni bir-biridan ajratib emas, balki ularni bog'lab turgan tarixiy aloqalar, tarmoqlar va o'zaro ta'sirlar tizimi orqali tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv jahon tarixining yanada yaxlit va obyektiv manzarasini shakllantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Braudel, F. (1995). *A History of Civilizations*. New York: Penguin Books.
2. Frankopan, P. (2015). *The Silk Roads: A New History of the World*. London: Bloomsbury.
3. Frankopan, P. (2018). *The New Silk Roads: The New Asia and the Remaking of the World Order*. London: Bloomsbury.
4. McNeill, W. H. (1991). *The Rise of the West: A History of the Human Community*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Pomeranz, K. (2000). *The Great Divergence: China, Europe, and the Making of the Modern World Economy*. Princeton: Princeton University Press.
6. Bentley, J. H. (1993). *Old World Encounters: Cross-Cultural Contacts and Exchanges in Pre-Modern Times*. New York: Oxford University Press.
7. Bentley, J. H. (1996). *Cross-Cultural Interaction and Periodization in World History*. *American Historical Review*, 101(3), 749–770.
8. Abu-Lughod, J. L. (1989). *Before European Hegemony: The World System A.D. 1250–1350*. New York: Oxford University Press.
9. Curtin, P. D. (1984). *Cross-Cultural Trade in World History*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Osterhammel, J. (2014). *The Transformation of the World: A Global History of the Nineteenth Century*. Princeton: Princeton University Press.
11. Conrad, S. (2016). *What Is Global History?* Princeton: Princeton University Press.
12. *The Cambridge World History*. (2015). Volumes 1–9. Cambridge: Cambridge University Press.
13. Pomeranz, K., Topik, S. (2017). *The World That Trade Created: Society, Culture, and the World Economy, 1400 to the Present*. 4th ed. Routledge.
14. Frankopan, P. (2023). *The Earth Transformed: An Untold History*. London: Bloomsbury.



**ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON
QADRIYATLARINING O'ZGARISHI VA UNING
FALSAFIY ASOSLARI**

**THE TRANSFORMATION OF HUMAN VALUES IN
MODERN SOCIETY AND ITS PHILOSOPHICAL
FOUNDATIONS**

**ИЗМЕНЕНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В
СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ И ИХ
ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ**

FAN TARMOG'I
09.00.00 – Falsafa

QABUL QILINDI
25.08.2026

CHOP ETILDI
28.08.2026

Ulug'bek Jalolov

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi tyutori

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda inson qadriyatlarining mazmuni, shakllanish omillari va transformatsiya jarayonlari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida shakllangan axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarning zamonaviy ijtimoiy muhit ta'sirida o'zgarib borishi tadqiq etiladi. Globallashuv, raqamlashtirish, axborot oqimining jadallashuvi, urbanizatsiya va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyasi insonning qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani asoslanadi. Shuningdek, inson qadr-qimmati, erkinlik, adolat, mas'uliyat, insonparvarlik va axloqiy tanlov kabi tushunchalarning zamonaviy jamiyatdagi falsafiy mazmuni yoritiladi. Tadqiqotda qadriyatlarning o'zgarishi mutlaq yo'qolish emas, balki tarixiy va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda qayta mazmunlanish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Maqolada zamonaviy jamiyat barqarorligini ta'minlashda insonparvarlik, ijtimoiy adolat va inson qadr-qimmatiga asoslangan qadriyatlarning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: qadriyat, aksiologiya, inson, jamiyat, inson qadr-qimmati, axloq, ma'naviyat, erkinlik, adolat, mas'uliyat, globallashuv, raqamlashtirish, insonparvarlik, ijtimoiy taraqqiyot.

ABSTRACT

This article analyzes the content, formation factors, and transformation processes of human values in modern society from a philosophical perspective. It examines the changes in moral, spiritual, social, and cultural values that have developed at different stages of human history under the influence of the contemporary social environment. The study substantiates the significant impact of globalization, digitalization, the intensification of information flows, urbanization,

and the transformation of social relations on the system of human values. It also examines the philosophical meaning of such concepts as human dignity, freedom, justice, responsibility, humanism, and moral choice in modern society. The transformation of values is interpreted not as their absolute disappearance but as a process of their reinterpretation in accordance with changing historical and social conditions. The article highlights the importance of values based on humanism, social justice, and human dignity in ensuring the stability and sustainable development of modern society.

Keywords: value, axiology, human, society, human dignity, morality, spirituality, freedom, justice, responsibility, globalization, digitalization, humanism, social development.

АННОТАЦИЯ

В статье с философской точки зрения анализируются содержание, факторы формирования и процессы трансформации человеческих ценностей в современном обществе. Исследуются изменения нравственных, духовных, социальных и культурных ценностей, сформировавшихся на различных этапах развития человечества, под воздействием современной социальной среды. Обосновывается существенное влияние глобализации, цифровизации, интенсификации информационных потоков, урбанизации и трансформации общественных отношений на систему человеческих ценностей. Также раскрывается философское содержание таких понятий, как человеческое достоинство, свобода, справедливость, ответственность, гуманизм и нравственный выбор в современном обществе. Трансформация ценностей рассматривается не как их абсолютное исчезновение, а как процесс их переосмысления в соответствии с изменяющимися историческими и социальными условиями. В статье раскрывается значение ценностей, основанных на гуманизме, социальной справедливости и человеческом достоинстве, в обеспечении стабильности и устойчивого развития современного общества.

Ключевые слова: ценность, аксиология, человек, общество, человеческое достоинство, нравственность, духовность, свобода, справедливость, ответственность, глобализация, цифровизация, гуманизм, общественное развитие.

KIRISH

Insoniyat taraqqiyoti tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, jamiyat hayotining barcha bosqichlarida qadriyatlar inson faoliyatini tartibga soluvchi muhim ma'naviy va ijtimoiy omillardan biri bo'lib kelganini ko'rish mumkin. Insonning yaxshilik va

yomonlik, adolat va adolatsizlik, ezgulik va yovuzlik, erkinlik va majburiyat, go‘zallik va xunuklik haqidagi tasavvurlari uning individual xatti-harakatlari bilan bir qatorda jamiyatning umumiy taraqqiyot yo‘nalishini ham belgilab kelgan. Shu ma’noda qadriyatlar faqat shaxsning ichki dunyosiga tegishli hodisa emas, balki ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va barqarorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim falsafiy kategoriya hisoblanadi.

Falsafada qadriyatlar masalasi aksiologiya doirasida o‘rganiladi. Zamonaviy falsafiy talqinda aksiologiya yaxshilik, qadrlilik va muayyan narsalar yoki holatlarning qanchalik qimmatli ekanligi haqidagi nazariy masalalarni o‘rganadi. Qadriyat nazariyasi axloq falsafasi, ijtimoiy va siyosiy falsafa, estetika kabi yo‘nalishlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Bugungi kunda qadriyatlar masalasining dolzarbligi jamiyat hayotida yuz berayotgan tub o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq. Globallashuv jarayonlari turli xalqlar va madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirib, qadriyatlarning o‘zaro ta’sirini jadallashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar esa insonning axborotni qabul qilish, muloqot qilish, fikr bildirish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish usullarini o‘zgartirmoqda. Bunday sharoitda avvalgi davrlarda shakllangan qadriyatlarning mazmuni qayta ko‘rib chiqilmoqda va yangi qadriyatlar paydo bo‘lmoqda.

Inson qadr-qimmati ham zamonaviy falsafiy tafakkurning muhim kategoriyalaridan biridir. Zamonaviy falsafada inson qadr-qimmati barcha insonlarga teng ravishda tegishli bo‘lgan asosiy qadr va maqom sifatida talqin qilinadi hamda axloqiy va siyosiy majburiyatlar bilan bog‘lanadi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda qadriyatlar transformatsiyasini o‘rganishda inson qadr-qimmati, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat va axloqiy mas’uliyat kabi tushunchalarning o‘zaro munosabatini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Qadriyatlar inson va jamiyat hayotining mazmunini belgilovchi murakkab falsafiy hodisa bo‘lib, ular orqali inson voqelikdagi narsa va hodisalarga munosabatini ifodalaydi. Qadriyat tushunchasi muayyan predmet yoki hodisaning inson va jamiyat uchun ahamiyatini anglatish bilan birga, shaxsning xulq-atvorini yo‘naltiruvchi ma’naviy mezon sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan qadriyatlar insonning individual ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlari va jamiyat tomonidan shakllantirilgan me’yorlar o‘rtasidagi munosabatni tartibga soladi. Falsafiy nuqtayi nazardan qadriyatlar obyektiv va subyektiv omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Inson tomonidan anglangan, qabul qilingan va amaliy faoliyatda namoyon bo‘lgan qadriyatlar shaxsning dunyoqarashi va hayotiy pozitsiyasining muhim asosini tashkil etadi.

Tarixiy taraqqiyot davomida qadriyatlarning mazmuni va ustuvorlik darajasi o'zgarib borgan. Qadimgi jamiyatlarda jamoaviylik, an'ana, diniy e'tiqod va ijtimoiy tartib muhim qadriyatlar sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa, keyingi tarixiy davrlarda shaxsiy erkinlik, inson huquqlari, individual tanlov va fuqarolik mas'uliyati kabi tushunchalarning ahamiyati ortgan. Biroq bu jarayon avvalgi qadriyatlarning to'liq yo'qolishi bilan kechmagan. Aksincha, qadriyatlar yangi tarixiy sharoitda qayta talqin qilinib, boshqa mazmun va shakllarga ega bo'lgan. Demak, qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni mutlaq uzilish sifatida emas, balki tarixiy davomiylik va yangilanish jarayonlarining o'zaro uyg'unligi sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Inson qadr-qimmati masalasi ushbu jarayonning markaziy jihatlaridan biridir. Insonning o'ziga xosligi, uning erkin fikrlash va tanlash qobiliyati, axloqiy mas'uliyatni anglash imkoniyati qadimdan falsafiy tafakkurning muhim masalalaridan biri bo'lib kelgan. Yangi davr falsafasida ushbu masala yanada chuqur mazmun kasb etdi. Immanuel Kant insonni boshqa maqsadlarga erishish vositasi sifatida emas, balki o'z-o'zicha maqsad sifatida ko'rish zarurligini asoslagan. Uning axloqiy falsafasida insonning o'ziga xos qadr-qimmati uning oqilona va avtonom mavjudot ekanligi bilan bog'lanadi. Zamonaviy falsafada ham inson qadr-qimmati masalasi huquq, axloq, siyosat va ijtimoiy adolat bilan uzviy aloqada ko'rib chiqiladi.

Zamonaviy jamiyatda qadriyatlar transformatsiyasiga ta'sir ko'rsatayotgan eng muhim omillardan biri globallashuvdir. Globallashuv natijasida turli madaniyatlar o'rtasidagi aloqalar misli ko'rilmagan darajada kuchaydi. Turli xalqlarning turmush tarzi, axloqiy qarashlari, madaniy tajribasi va ijtimoiy me'yorlari bir-biriga tobora yaqinlashmoqda. Bu jarayon bir tomondan madaniy almashinuv va o'zaro anglashuv imkoniyatlarini kengaytirsam, ikkinchi tomondan ayrim an'anaviy qadriyatlarning zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli globallashuvni qadriyatlarning yo'qolishiga olib keluvchi yagona omil sifatida baholash noto'g'ri bo'ladi. Aksincha, u qadriyatlarning qayta ko'rib chiqilishi, ularning yangi sharoitga moslashishi va turli madaniy tizimlar bilan muloqotga kirishish jarayonini tezlashtiradi.

Raqamlashtirish ham inson qadriyatlarining o'zgarishida muhim omilga aylanmoqda. Raqamli muhit insonning vaqt, makon va muloqot haqidagi tasavvurlarini o'zgartirdi. Ilgari shaxslararo munosabatlar asosan bevosita muloqot orqali amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda virtual muloqot kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Bu holat insonning shaxsiy hayoti, ijtimoiy mas'uliyati, axborotga munosabati va axloqiy tanlovlariga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, raqamli makonda shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi, yolg'on axborot, virtual tajovuzkorlik va mas'uliyatsiz axborot tarqatish kabi muammolar axloqiy qadriyatlarning yangi sharoitda qanday namoyon bo'lishini o'rganishni talab qilmoqda.

Bunday sharoitda erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi munosabat alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda insonning fikr bildirish, axborot olish, kasb tanlash va shaxsiy hayotini tashkil etish imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq erkinlikning kengayishi shaxsiy va ijtimoiy mas'uliyatning ham kuchayishini talab qiladi. Falsafiy nuqtayi nazardan erkinlik mas'uliyatsiz mavjud bo'la olmaydi. Shaxs o'z tanlovining oqibatlarini anglagan taqdirdagina erkinlik mazmunli axloqiy hodisaga aylanadi. Shu sababli zamonaviy qadriyatlar tizimida erkinlik va mas'uliyatning muvozanati muhim mezonlardan biri sifatida qaralishi lozim.

Adolat tushunchasi ham zamonaviy qadriyatlar tizimining asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Jamiyat taraqqiyoti davomida adolat tushunchasiga turlicha mazmun berilgan bo'lsa-da, uning asosida insonlar o'rtasidagi munosabatlarda tenglik, haqqoniylik va huquqlarning hurmat qilinishi kabi tamoyillar mavjud. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy tengsizlik, ta'lim va tibbiyot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlaridagi farqlar, mehnat munosabatlari va ijtimoiy himoya masalalari adolat tushunchasining mazmunini yanada kengaytirmoqda. Shu sababli adolatni faqat huquqiy tenglik bilan cheklash emas, balki insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog'lash ham muhimdir.

Qadriyatlarning o'zgarishida yosh avlodning dunyoqarashi ham alohida o'rin tutadi. Yoshlar yangi axborot va kommunikatsiya vositalaridan faol foydalanishi sababli turli madaniy muhitlar bilan tez va bevosita aloqaga kirishadi. Natijada ularning hayot tarzi, kasbiy qarashlari, muloqot shakllari va kelajak haqidagi tasavvurlari avvalgi avlodlardan farq qilishi mumkin. Bunday farqlarni avlodlar o'rtasidagi ziddiyat sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlarning tabiiy natijasi sifatida baholash mumkin. Shu bilan birga, avlodlar davomiyligini ta'minlash uchun tarixiy xotira, madaniy meros, insonparvarlik, hurmat va mas'uliyat kabi fundamental qadriyatlarni saqlab qolish muhimdir.

Sharq falsafiy tafakkurida ham inson va uning ma'naviy kamoloti masalasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi. Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Navoiy kabi mutafakkirlar insonning axloqiy va ma'naviy barkamolligi, ilm-ma'rifat, adolat, ezigulik va jamiyat oldidagi mas'uliyati haqida muhim fikrlarni ilgari surganlar. Ayniqsa, Farobiyning fozil jamiyat haqidagi qarashlarida inson kamoloti va jamiyat farovonligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ko'rsatiladi. Bu g'oyalar zamonaviy sharoitda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, inson manfaatlari, ijtimoiy hamjihatlik va ma'naviy taraqqiyot masalalarini falsafiy jihatdan anglash uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Qadriyatlarning zamonaviy transformatsiyasini baholashda an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish ham maqsadga muvofiq emas. Chunki jamiyat taraqqiyoti tarixiy tajriba va innovatsion o'zgarishlarning o'zaro uyg'unligi asosida kechadi. An'anaviy qadriyatlar jamiyatning tarixiy xotirasi

va madaniy o'zligini saqlashga xizmat qilsa, zamonaviy qadriyatlar yangi ijtimoiy sharoitlarda insonning yangi ehtiyojlari va imkoniyatlarini aks ettiradi. Muhimi, har ikkala tizimning inson qadr-qimmati, adolat, tinchlik, hamjihatlik va ma'naviy taraqqiyot kabi fundamental tamoyillar atrofida uyg'unlashishidir.

Shunday qilib, zamonaviy jamiyatda qadriyatlarning o'zgarishi tabiiy va uzluksiz tarixiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon globallashtirish, raqamlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot, urbanizatsiya, ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi bilan chambarchas bog'liq. Qadriyatlar transformatsiyasi jamiyat uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ma'naviy va axloqiy muammolarni ham yuzaga keltiradi. Shu sababli zamonaviy falsafaning muhim vazifalaridan biri o'zgarayotgan qadriyatlar tizimini tanqidiy va tizimli ravishda tahlil qilish, inson qadr-qimmati va ijtimoiy adolatni ta'minlaydigan fundamental tamoyillarni aniqlashdan iboratdir.

XULOSA

Zamonaviy jamiyatda inson qadriyatlarining o'zgarishi tarixiy taraqqiyotning tabiiy va murakkab jarayoni hisoblanadi. Globallashtirish, raqamlashtirish, ilmiy-texnik taraqqiyot va madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi insonning dunyoqarashi hamda qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday o'zgarishlar qadriyatlarning yo'qolishini emas, balki ularning yangi ijtimoiy sharoitlarda qayta talqin qilinishini anglatadi.

Tadqiqot natijasida qadriyatlar shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim falsafiy va ijtimoiy mexanizm ekanligi aniqlandi. Inson qadr-qimmati, erkinlik, adolat, mas'uliyat, insonparvarlik va ma'naviy kamolot kabi fundamental qadriyatlar zamonaviy jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda an'anaviy va yangi qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni qarama-qarshilik asosida emas, balki o'zaro uyg'unlik va davomiylik nuqtayi nazaridan baholash zarur. Tarixiy xotira va milliy-madaniy merosni saqlash bilan birga, inson huquqlari, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat va ilmiy tafakkur kabi zamonaviy qadriyatlarni rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir.

Demak, zamonaviy qadriyatlar tizimining markazida inson va uning qadr-qimmati turishi lozim. Inson manfaatlari, erkinligi va mas'uliyatining uyg'unligi ta'minlangan jamiyatgina barqaror, adolatli va ma'naviy jihatdan taraqqiy etgan jamiyat sifatida shakllanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotle. Nicomachean Ethics. Translated by Terence Irwin. 2nd ed. Indianapolis: Hackett Publishing Company, 1999.



2. Kant, I. Groundwork of the Metaphysics of Morals. Edited and translated by Mary Gregor and Jens Timmermann. Cambridge: Cambridge University Press, 2012.
3. Kant, I. Critique of Practical Reason. Cambridge: Cambridge University Press, 1997.
4. Plato. Republic. Translated by G. M. A. Grube and C. D. C. Reeve. Indianapolis: Hackett Publishing Company, 1992.
5. Sen, A. The Idea of Justice. Cambridge, MA: Harvard University Press, 2009.
6. Taylor, C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989.
7. Bauman, Z. Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press, 2000.
8. Giddens, A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford: Stanford University Press, 1991.
9. UNESCO. Universal Declaration on Bioethics and Human Rights. Paris: UNESCO, 2005.
10. United Nations. Universal Declaration of Human Rights. New York: United Nations, 1948.
11. Farobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012.
12. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
13. Falsafa. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013.
14. Stanford Encyclopedia of Philosophy. Value Theory. First published 2008, substantive revision 2025.
15. Stanford Encyclopedia of Philosophy. Dignity. First published 2023.



**ADABIY ASARDA RAMZ VA TIMSOLLARNING
BADIY VAZIFASI**

**THE ARTISTIC FUNCTION OF SYMBOLS AND
IMAGES IN LITERARY WORKS**

**ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ФУНКЦИЯ СИМВОЛОВ И
ОБРАЗОВ В ЛИТЕРАТУРНОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ**

FAN TARMOG‘I
10.00.00 – Filologiya

QABUL QILINDI
26.08.2026

CHOP ETILDI
29.08.2026

Raxmatilla Eshpulatovich Norbekov

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), erkin izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada adabiy asarda ramz va timsollarning shakllanishi, mazmun-mohiyati hamda badiiy-estetik vazifalari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Ramz va timsol tushunchalarining o'zaro munosabati, ularning badiiy tafakkur, muallif pozitsiyasi va asarning g'oyaviy mazmunini ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Badiiy adabiyotda ramziy obrazlar orqali bevosita ifodalash qiyin bo'lgan falsafiy, axloqiy, ijtimoiy va ruhiy mazmunlarning obrazli tarzda ifodalanishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, ramzlarning ko'pma'nolilik, assotsiativlik, tarixiy-madaniy shartlanganlik va estetik ta'sirchanlik kabi xususiyatlari tahlil qilinadi. Ramz va timsollarning syujet, obrazlar tizimi, badiiy detal hamda kompozitsiya bilan munosabati ochib berilib, ularning asarning mazmunini yaxlitligini ta'minlashdagi o'rni asoslanadi. Tadqiqot natijasida ramz va timsollar badiiy asarning tashqi tasviriy qatlamini boyituvchi vosita bo'lish bilan birga, uning chuqur semantik va falsafiy mazmunini yuzaga chiqaruvchi muhim poetik mexanizm ekanligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: adabiyotshunoslik, badiiy asar, ramz, timsol, badiiy obraz, poetika, badiiy tafakkur, obrazlilik, ko'p ma'nolilik, muallif pozitsiyasi, badiiy detal, estetik mazmun.

ABSTRACT

This article theoretically analyzes the formation, meaning, and artistic and aesthetic functions of symbols and images in literary works. It examines the relationship between the concepts of symbol and image, as well as their significance in expressing artistic thought, the author's position, and the ideological content of a literary work. The study demonstrates that symbolic images in literature make it possible to express philosophical, moral, social, and psychological meanings in an imaginative form that may be difficult to convey through direct representation. Particular attention is paid to such characteristics of symbols as polysemy, associative nature, historical and cultural conditioning, and aesthetic expressiveness. The relationship between symbols and images and such elements of literary composition

as plot, the system of characters, artistic detail, and composition is also examined. The study argues that symbols and images not only enrich the descriptive layer of a literary work but also function as important poetic mechanisms through which its deeper semantic and philosophical meanings are revealed.

Keywords: literary studies, literary work, symbol, image, artistic image, poetics, artistic thought, imagery, polysemy, author's position, artistic detail, aesthetic meaning.

АННОТАЦИЯ

В статье в теоретическом аспекте анализируются формирование, содержание и художественно-эстетические функции символов и образов в литературном произведении. Рассматриваются соотношение понятий символа и образа, а также их значение в выражении художественного мышления, авторской позиции и идейного содержания произведения. Показано, что посредством символических образов в художественной литературе философские, нравственные, социальные и психологические смыслы могут выражаться в образной форме, которая не всегда доступна для непосредственного изображения. Анализируются такие особенности символов, как многозначность, ассоциативность, историко-культурная обусловленность и эстетическая выразительность. Раскрывается взаимосвязь символов и образов с сюжетом, системой персонажей, художественной деталью и композицией произведения. В результате исследования обосновывается, что символы и образы не только обогащают изобразительный уровень литературного произведения, но и выступают важным поэтическим механизмом раскрытия его глубокого семантического и философского содержания.

Ключевые слова: литературоведение, литературное произведение, символ, образ, художественный образ, поэтика, художественное мышление, образность, многозначность, авторская позиция, художественная деталь, эстетическое содержание.

KIRISH

Adabiyot insonning borliqni anglash, uni badiiy idrok etish va o'z munosabatini obrazli shaklda ifodalash imkonini beruvchi san'at turlaridan biridir. Badiiy asarda voqelik bevosita tasvirlanishi bilan bir qatorda turli obrazlar, belgilar, detallar va ramziy ifodalar orqali ham aks ettiriladi. Shu jihatdan ramz va timsol badiiy tafakkurning muhim shakllaridan biri sifatida adabiyotshunoslikning dolzarb tadqiqot obyektlaridan hisoblanadi. Badiiy asarda qo'llanadigan ramziy obrazlar ko'pincha bir qarashda oddiy predmet, hodisa yoki personaj sifatida namoyon bo'lsa-da, ularning mazmun doirasi bevosita tasvirdan ancha keng bo'lishi mumkin. Shu sababli ramz va

timsollarni tadqiq etish badiiy matnning yashirin, ko‘p qatlamli ma’nolarini anglash imkonini beradi.

Ramz tushunchasi adabiyotshunoslikda murakkab va ko‘p qirrali kategoriyalardan biri sanaladi. Ramz oddiy belgidan farqli ravishda muayyan predmet yoki hodisani ifodalash bilan cheklanmay, undan kengroq ma’no va mazmunni anglatadi. Badiiy ramzning mohiyati uning konkret obraz orqali mavhum tushuncha, g‘oya yoki ruhiy holatni ifodalash imkoniyatida namoyon bo‘ladi. Bunda ramzning ma’nosi faqat muallif tomonidan belgilab qo‘yilgan yagona mazmun bilan chegaralanmaydi, balki o‘quvchining estetik tajribasi, madaniy xotirasi va individual idroki bilan ham bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli bir xil ramz turli tarixiy va madaniy sharoitlarda turlicha ma’no kasb etishi mumkin.

Adabiy asarning badiiy qimmatini ko‘p jihatdan undagi obrazlarning mazmuniy va estetik imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ramziy obrazlar esa badiiy mazmunni bevosita bayon qilish o‘rniga uni o‘quvchi tomonidan anglash va talqin qilish uchun ochiq qoldiradi. Bu xususiyat adabiyotning estetik tabiatiga mos keladi. Chunki badiiy asar tayyor xulosani berishdan ko‘ra, o‘quvchini fikrlashga, tasvirlangan hodisaning mohiyatini anglashga va turli ma’no qatlamlarini kashf etishga undaydi.

ASOSIY QISM

Badiiy asarda ramz va timsollarning shakllanishi insoniyatning obrazli tafakkuri bilan chambarchas bog‘liq. Inson borliqni faqat mantiqiy tushunchalar orqali emas, balki obrazlar va assotsiatsiyalar vositasida ham anglaydi. Tabiat hodisalari, ranglar, predmetlar, hayvonlar, o‘simliklar, makon va vaqt bilan bog‘liq tasvirlar inson ongida muayyan ma’nolarni uyg‘otishi mumkin. Adabiyot ana shu tabiiy assotsiativ imkoniyatlardan foydalanib, konkret obraz orqali abstrakt tushunchalarni ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada oddiy predmet badiiy matn doirasida yangi semantik mazmun kasb etadi. Masalan, yo‘l obrazi harakat, taqdir, izlanish yoki hayot yo‘lini anglatishi, tun obrazi noma’lumlik, yolg‘izlik yoki ruhiy tushkunlik bilan bog‘lanishi, nur esa umid, ma’rifat yoki ezgulik ramzi sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq bunday ramzlarning mazmunini oldindan belgilangan qat’iy ma’nolar yig‘indisi sifatida tushunish to‘g‘ri emas. Ularning mazmuni asarning umumiy poetik tizimi, konteksti, muallifning estetik konsepsiyasi va obrazlar o‘rtasidagi munosabat orqali yuzaga keladi.

Ramzning asosiy xususiyatlaridan biri uning ko‘pma’noliligidir. Oddiy badiiy detal muayyan voqea yoki holatni konkretlashtirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lsa, ramziy detal shu tasvir doirasidan chiqib, umumlashtiruvchi mazmunni yuzaga chiqaradi. Masalan, asarda takroriy ravishda uchraydigan deraza obrazi faqatgina bino konstruksiyasining bir qismi sifatida emas, balki tashqi dunyo bilan ichki olam o‘rtasidagi chegarani, erkinlikka intilishni yoki noma’lumlikka qarash imkoniyatini

ifodalashi mumkin. Bunda derazaning ramziy ma'nosi uning o'ziga xos lug'aviy ma'nosidan emas, balki matn ichida egallagan poetik vazifasidan kelib chiqadi. Demak, ramzning badiiy qiymati uning konkret predmetlik xususiyati bilan abstrakt ma'no o'rtasidagi munosabat orqali belgilanadi.

Timsollar ham badiiy asarning mazmuniy tuzilishida muhim o'rin egallaydi. Timsolda muayyan shaxs, predmet yoki hodisa umumlashtirilgan obraz sifatida namoyon bo'ladi. Adabiy qahramon muayyan individual xususiyatlarga ega bo'lsa-da, uning xarakteri va faoliyati orqali kengroq ijtimoiy yoki ma'naviy hodisalar ifodalanishi mumkin. Shu sababli adabiyotshunoslikda badiiy obraz va timsol tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularni aynanlashtirish maqsadga muvofiq emas. Badiiy obraz konkret individual xususiyatlarga ega bo'lgan estetik hodisa bo'lsa, timsol ko'pincha ana shu obrazning umumlashtiruvchi va mazmuniy jihatini kuchaytiradi.

Ramz va timsollar muallifning badiiy konsepsiyasini ifodalashda ham muhim vosita hisoblanadi. Muallif o'z munosabatini har doim ham bevosita bayon qilmaydi. Ayrim hollarda uning estetik va falsafiy qarashlari obrazlar, predmetlar, voqealar va ramziy detallar orqali namoyon bo'ladi. Bunday usul badiiy asarning semantik qatlamlarini kengaytiradi. O'quvchi voqealar rivojini kuzatar ekan, ayrim obraz va detاللarning takrorlanishi, ularning turli vaziyatlarda qo'llanishi yoki boshqa obrazlar bilan aloqasiga e'tibor qaratib, muallifning yashirin estetik pozitsiyasini anglay boshlaydi. Shunday qilib, ramz muallif va o'quvchi o'rtasidagi badiiy kommunikatsiyaning muhim shakliga aylanadi.

Ramziylik ayniqsa falsafiy mazmunga ega bo'lgan asarlarda katta ahamiyat kasb etadi. Insonning hayot va o'lim, vaqt va makon, ezgulik va yovuzlik, erkinlik va taqdir, yolg'izlik va jamiyat kabi abadiy muammolarini bevosita tushuntirish badiiy asarning estetik tabiatiga har doim ham mos kelavermaydi. Shu sababli adib ko'pincha mazkur tushunchalarni ramziy obrazlar orqali ifodalaydi. Bunday holatda ramz falsafiy g'oyani oddiy nazariy mulohazadan badiiy-estetik hodisaga aylantiradi. O'quvchi esa mazkur g'oyani tayyor hukm sifatida emas, balki obrazli tajriba orqali qabul qiladi.

